

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

« TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.X.Komolov _____

«__» _____ 2015 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.Maxmudov _____

«__» _____ 2015 y.

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA’LIM
YO’NALISHINING BITIRUVCHISI**

SADIROVA GAVHARNISONING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: "MAGNIT" MA'SULIYATI CHEKLANGAN
JAMIYATDA TAYYOR MAHSULOT VA UNI
BAHOLASH HAMDA QABUL QILISH
MUOMALALARI HISOBI**

BMI rahbari:

i.f.n:

M.HOJIBOYEV

Bajaruvchi:

G.SADIROVA

ANDIJON – 2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI

IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov _____

«____» _____ 20____ yil.

**Kunduzgi bo'lim buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishining
4-bosqich talabasi Sadirova Gavxarnisoning
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining 2014 yil 10sentabrdagi №275-St sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2. BMIning mavzusi:** *"Magnit" ma'suliyati cheklangan jamiyatda tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobi*
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti.** *8 may 2015 yil.*
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** *BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** *«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BXMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda "Magnit" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2013-2014 yillardagi yig'ma va yilik hisobotlari hamda mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** *Bitiruv Malakaviy ishda mavzu mohiyatini yoritishga yordam beradigan 6 ta jadval, 1 chizma tuzilib, ulardan 3 tasi bevosita himoya jarayonida foydalaniladi.*

Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismlari	Asosiy qismlarni bajarish vaqti	Raxbar unvoni, F. I.SH.	Imzo
KIRISH	10.11.2014 - 15.11.2014 y	i.f.n. M.Hojiboyev	
1-bob. Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobini nazariy asoslari	16.11.2014 - 30.11.2014 y.	i.f.n. M.Hojiboyev	
1.1. Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobining nazariy va uslubiy asoslari	01.12.2014 - 15.12.2014 y.	i.f.n. M.Hojiboyev	
1.2. Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalarini hisobga olishning mohiyati va ahamiyati	16.12.2014 - 31.12.2014 y.	i.f.n. M.Hojiboyev	
2-bob. "MAGNIT" mchjda tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalarini buxgalteriya hisobida yuritilishi	01.02.2015- 15.02.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	
2.1. "Magnit" MCHJda buxgalteriya hisobi va hisobotning o'ziga xos xususiyatlari	16.02.2015- 28.02.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	
2.2. "Magnit" MCHJda tayyor mahsulot va uni baholashni hisobga olish	01.03.2015- 15.03.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	
2.3. "Magnit" MCHJda tayyor mahsulotlarni qabul qilish muomalalari hisobi va hujjatlarda aks ettirilishi	16.03.2015- 20.03.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	
2.4. "Magnit" MCHJda tayyor mahsulotlarni sotish hisobi	22.03.2015- 05.04.2015 y	i.f.n. M.Hojiboyev	
3-bob. Tayyor mahsulot va uni baholash hisobi hamda qabul qilish muomalalari hisobini takomillashtirish	06.04.2015- 15.04.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	
3.1. Tayyor mahsulotlar va ularni saqlanishini inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi	16.04.2015- 25.04.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	
3.2. Tayyor mahsulotlar va uni qabul qilish hisobini takomillashtirish	26.04.2015- 30.04.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	
Xulosa va takliflar.	01.05.2015- 8.05.2015y	i.f.n. M.Hojiboyev	

Topshiriq berilgan vaqti: 10 sentabr 2014 yil.

Rahbar i.f.n.:

M.Hojiboyev

Bitiruvchi:

G.Sadirova

MUNDARIJA

bet

	KIRISH	
1-BOB.	TAYYOR MAHSULOT VA UNI BAHOLASH HAMDA QABUL QILISH MUOMALALARI HISOBINI NAZARIY ASOSLARI	
1.1.	<i>Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobining nazariy va uslubiy asoslari</i>	
1.2.	<i>Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalarini hisobga olishning mohiyati va ahamiyati</i>	
2-BOB.	“MAGNIT” MCHJDA TAYYOR MAHSULOT VA UNI BAHOLASH HAMDA QABUL QILISH MUOMALALARINI BUXGALTERIYA HISOBIDA YURITILISHI	
2.1.	<i>“Magnit” MCHJda buxgalteriya hisobi va hisobotning o‘ziga xos xususiyatlari</i>	
2.2.	<i>“Magnit” MCHJda tayyor mahsulot va uni baholashni hisobga olish</i>	
2.3.	<i>“Magnit” MCHJda tayyor mahsulotlarni qabul qilish muomalalari hisobi va hujjatlarda aks ettirilishi</i>	
2.4.	<i>“Magnit” MCHJda tayyor mahsulotlarni sotish hisobi</i>	
3-BOB.	TAYYOR MAHSULOT VA UNI BAHOLASH HISOBI HAMDA QABUL QILISH MUOMALALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	
3.1.	<i>Tayyor mahsulotlar va ularni saqlanishini inventarizatsiyadan o‘tkazish tartibi</i>	
3.2.	<i>Tayyor mahsulotlar va uni qabul qilish hisobini takomillashtirish</i>	
	Xulosa va takliflar.	
	Foydalanilgan adabiyotlar.	

KIRISH.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim omil bo'lmoqda. Keyingi yillarda jahonning rivojlangan davlatlarida davom etayotgan inqirozga qaramay, yurtimizda barcha sohalarda o'sish sur'atlari barqaror saqlanib kelayotgani, qator tarmoqlarda yuqori natijalar ko'lga kiritilayotgani buning amaliy tasdig'idir. Shunday bo'lsada iqtisodiyotning o'sishi prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan bir oz pastligi muhtaram Prezidentimiz tomonidan quyidagicha e'tirof etildi: "Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir"¹. Shunday bo'lsada O'zbekistonda iqtisodiyot yildan-yilga o'sib borayotganligi kuzatilmoqda.

Tabiiyki, ana shu muvaffaqiyatlarda ishlab chiqarish va savdo bilan shug'illanvchi kichik biznes korxonalarining ham ulushi salmoqli. Hozirgi iqtisodiyot taraqqiyoti sharoitida korxona ishlab chiqarishi ko'zda tutilgan mahsulotlar hajmi, iste'molchilarning ko'lami hamda korxona ichki imkoniyatlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan boyliklarning chegaralanganligi mo'l-ko'l tovarlar ishlab chiqarilishini ham chegaralaydi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan buxgalterlar tomonidan beriladigan axborotlarga bog'liqdir. Chunki, buxgalterlar tomonidan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2015 yil, 17 yanvar, №11

xo'jalik korxonasi haqidagi mulkiy va moliyaviy holat bo'yicha taqdim etiladigan yakuniy xulosa hozirgi kun talabi bo'yicha mukammal bo'lishi uchun dastlabki hujjatlarga asoslangan hamda ishonchli bo'lishi davr talabidir.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy isloxlarni debochasi sifatida buxgalteriya hisobini rivojlantirish hamda uni jaxon talablari darajasiga ko'tarilishini ta'minlash maqsadida hukumatimiz tomonidan juda ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Buning yorqin misoli respublikamizda qabul qilingan buxgalteriya hisobining huquqiy asosini ta'minlab beruvchi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun hamda milliy standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilinishidir.

Bunday sharoitda korxona o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini to'g'ri belgilay olishi muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning sotilishigacha bo'lgan jarayonda uning sifatini saqlagan holda sotilishini ta'minlash korxonalarda tayyor mahsulotlar xarakati hisobini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan ta'minlanadi. Yuqoridagilarni inobatga olib korxonalarda tayyor mahsulotlar bilan bog'liq muomalalarni hisobini tashkil etish bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi kichik ishlab chiqarish korxonalarida tayyor mahsulotlarni baholash, uni qabul qilish hisobi holatini o'rganish va shular asosida ilmiy va asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdir. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobining nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish;
- tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalarini hisobga olishning mohiyati va ahamiyatini aniqlash;
- "Magnit" MCHJda buxgalteriya hisobi va hisobotning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish;
- "Magnit" MCHJda tayyor mahsulot va uni baholashni hisobga olish tartibini ko'rib chiqish;

- "Magnit" MCHJda tayyor mahsulotlarni qabul qilish muomalalari hisobi va hujjatlarda aks ettirilishi xususiyatlarini o'rganish;
- "Magnit" MCHJda tayyor mahsulotlarni sotish hisobi bilan tanishish;
- tayyor mahsulotlar va ularni saqlanishini inventarizatsiyadan o'tkazish tartibini tahlil qilish;
- tayyor mahsulotlar va uni qabul qilish hisobini takomillashtirish bo'yicha talif va tavsiyalar berishdir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq Kodeksi, sohaga oid qonunlar, Prezident farmonlari, iqtisodiyotga oid ilmiy asarlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari, nizomlar, ko'rsatmalar, shuningdek yurtimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarining sohaga oid ilmiy ishlari ishning nazariy va uslubiy asoslaridir.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lib Andijon shaxrida joylashgan joylashgan "Magnit" mas'uliyati cheklangan jamiyati hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning nazariy va uslubiy asoslari amaliyot obyekti, ishning tarkibi va tuzilishi yoritilgan.

Birinchi "Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobini nazariy asoslari" deb nomlangan bobida korxonada tayyor mahsulot, uni qabul qilish tartibi hisobining nazari va uslubiy asoslari yoritib berilgan.

Ikkinchi "Magnit" MCHJda tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalarini buxgalteriya hisobida yuritilishi" deb nomlangan bobida esa ishning amaliyot obyekti bilan bog'liq holda tayyor mahsulotlar, ularni tayyorlash bilan bog'liq jarayon hamda omborga qabul qilish hisobi ko'rib chiqilgan.

Uchinchi "Tayyor mahsulot va uni baholash hisobi hamda qabul qilish muomalalari hisobini takomillashtirish" deb nomlangan bobida tayyor mahsulotlarni baholash, ularni qabul qilish hisobini takomillashtirish yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning yakunida mavzu bo'yicha xulosalar va takliflar keltirilgan.

1.BOB. Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobini nazariy asoslari

1.1. Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalari hisobining nazariy va uslubiy asoslari.

Tayyor mahsulot – korxona ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsulotidir. Ushbu korxonada ishlovi batamom nihoyasiga yetgan turli standartlar va texnikaviy shartlar talabiga javob beradigan, texnika nazorati bo'limi qabul qilib olgan hamda tayyor mahsulot omboriga topshirilgan mahsulot tayyor mahsulot deyiladi.

Hozirgi davrda, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar asosan tuzilgan shartnomalar (buyurtma papkasi) va bozor talabini chuqur va har tomonlama o'rganib mahsulot ishlab chiqarish, ularning turlari va hajmini belgilaydilar. Buning uchun esa yirik kompaniya, kontsern va firmalarning tarkibida marketing bo'limlari tashkil qilinib ular faqatgina bozorning talabi va taklifini o'rganish, ya'ni zarur, tez sotiladigan mahsulotlarning turlarini va ularga bo'lgan talabni o'rganish bilan shug'ullanadilar. Boshqaruv rahbariyatiga tegishli takliflarni berib, ushbu xulosalar u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularning sifati va hajmi yuzasidan qarorlar qabul qilishda asosiy o'rin tutadi.

Hozirgi davrda korxonaning rivojlanishi va barqarorligida mahsulotlarni oldindan tuzilgan shartnomaga asosan ishlab chiqarish va sotish muhim o'rin tutadi. Ushbu tartib korxona faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichini belgilashda va xo'jalik faoliyatining samaradorligini belgilash va belgilangan maqsadga muvofiqligini isbotlashda asosiy ko'rsatkichlar majmuasi hisoblanadi.

Korxonaning mahsulotni sotish hajmi ko'rsatkichini aniqlashda unga qiymatining kelib tushishidan qat'iy nazar sotilgan va jo'natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlari va ko'rsatgan xizmatlarining umumiy summasidan foydalanadilar.

Tayyor mahsulotlar, ish va xizmatlar korxonaning mablag'lari qatorida hisoblangani uchun ushbu jarayon xo'jalik faoliyatining oxirgi bosqichi hisoblanadi va xo'jalikka tegishli mablag'larning doiraviy aylanishini ta'minlaydi. Ushbu jarayon natijasida tayyor mahsulotlar ishlab chiqiladi, ular,

ishlar va xizmatlar iste'molchilarga yetkazib beriladi va korxonaga pul mablag'lari shaklida yoki almashuv natijasida boshqa moddiy resurslar kelib tushadi. Natijada davlat oldidagi budjetga to'lanadigan soliq majburiyatlari, boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar, mol yetkazib beruvchilarga, banklarga, ishchi va xizmatchilarga va boshqa korxonalarga bo'lgan qarz majburiyatlarini o'z vaqtida to'lash imkoniyatini yaratadilar. Tayyor mahsulotlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha belgilangan rejalarni bajarmaslik esa salbiy natijalarga olib keladi. Korxonaning aylanma mablag'larining doiraviy aylanishini sekinlashtiradi, iste'molchilar oldidagi majburiyatlarni bajara olmasligi natijasida jarimalar to'lashga olib keladi, boshqa to'lovlarni (soliq, ajratmalar, mehnat haki va boshqalar) o'z vaqtida to'lay olmaslikka, umuman olganda korxonaning moliyaviy holatining pasayishiga olib keladi.

Korxonalar mahsulotni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish rejaralarini tuzayotganda ushbu faoliyat natijasida olinadigan (kutilayotgan) foyda hajmini ham belgilaydilar. Chunki shartnomada kelishilgan baho ko'rsatilganda uning tarkibiga mahsulotning tannarxi va soliqlardan tashqari tegishli miqdorda foyda summasi ham qo'shiladi. Bu summani shartnomada ko'rsatilgan tayyor mahsulotlarning miqdoriga ularga qo'shilgan foyda summasi qo'shilsa umumiy kutilayotgan foyda hajmi aniqlanadi. Ushbu kutilayotgan foyda summasi asosida to'lanadigan bo'naklarning miqdori - budjetga soliq bo'yicha to'lanadigan summa aniqlanadi.

Olingan foydaning haqiqiy summasi esa belgilangan tartibda, asosan oyning va yilning oxirida aniqlanadi. Sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning kelishilgan sotish bahosi bilan ularning to'liq haqiqiy tannarxi (ishlab chiqarish tannarxi va ularni sotish bilan bog'liq sarflar) o'rtasidagi farq summasidan qo'shilgan qiymat va aktsiz soliqlarini chegirilgan holdagi farq summasi hisoblanadi.

Shuning uchun ham korxonaning xo'jalik faoliyatida tayyor mahsulotlar, ularni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish muhim o'rin tutadi.

Tayyor mahsulotning buxgalteriya hisobi, ularni baholash va qabul qilish ustidan nazoratni olib borib, quyidagilarni ta'minlash kerak:

- tayyor mahsulotni ishlab chiqarish, uning zaxiralari holati va omborlarda saqlanishi, bajarilgan ishlar va xizmatlar ustidan muntazam nazoratini;
- tayyor mahsulotni to'g'ri va haqqoniy baholanishi ustidan nazoratni;
- ortilgan va berilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni o'z vaqtida va to'g'ri hujjatlashtirish, xaridorlar bilan hisoblashishlarni aniq tashkil etish;
- mahsulot yetkazib berish shartnomalarining hajmi va turi bo'yicha ijro etilishini nazorat qilish;
- mahsulotni sotishdan olinadigan summani, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun amalda sarflangan xarajatlarni, foyda summasini hisoblashni uz vaqtida va to'g'ri bajarish.

Ushbu vazifalarni bajarish korxonaning bir tekisda faoliyat ko'rsatishi, mahsulotlarni sotishni va omborxona xo'jaligini to'g'ri tashkil qilish va ushbu muomalalarni o'z vaqtida va to'g'ri hujjatlashni talab qiladi.

Korxonalarda umuiy holda tayyor mahsulot (ish, xizmatlar) tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tayyor mahsulot (ish, xizmat) va korxonaning o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar;
- sanoat tarzidagi ish va xizmatlar;
- nosanoat tarzidagi ish va xizmatlar;
- sotib olinadigan buyumlar (butlash uchun sotib olingan buyumlar);
- qurilish, qurilish-montaj, loyixa-qidiruv, geologiya-razvedka, ilmiy-tadqiqot ishlari va shunga o'xshash ishlar;
- transport korxonalarida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar;
- yengil avtomobillarning ijarasi va avtomobillarni yetkazib berish (xaydab kelish) xizmatlari;

- transport-ekspeditsiya va yuklash, tushirish ishlari;
- aloqa korxonalarining xizmatlari va shu kabilar.

Korxonalarda mahsulotning hisobi – natura, shartli-natura va qiymat ko'rsatkichlarida yuritiladi.

Natura ko'rsatkichlari mahsulotning jismoniy xossalariga muvofiq uning soni, hajmi, og'irligini aks ettiradi va bu ko'rsatkichlar tayyor mahsulotni miqdor jihatdan hisobga olishda qo'llaniladi.

Shartli-natura o'lchovlari bir xildagi mahsulotni hisobga olishda umumlashtirilgan ko'rsatkichlar uchun qo'llaniladi. Bunday mahsulotning miqdori turlar bo'yicha koeffitsiyentlar yordamida shartli og'irlik, nav, yagona o'lchov va shu kabilarga aylantirilib, qaytadan hisoblab chiqiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymat ko'rsatkichi, agarda mahsulotning hammasini chetga sotish nazarda tutilsa, tovar mahsulotining hajmidir. Tovar mahsuloti sotishning reja va amaldagi narxlarida, ishlovning me'yoriy qiymatliklarida, bozor narxlarida baholanishi mumkin.

Korxonalarda mahsulot hisobi reja bo'limida natura ko'rsatkichlarida, omborda esa qiymat ko'rsatkichlarida olib boriladi.

Tayyor mahsulot buxgalteriya hisobida mahsulotning amaldagi ishlab chiqarish tannarxi, reja ishlab chiqarish tannarxi, sotishdagi ulgurji narxlar, erkin sotish narxlari va tariflari, erkin bozor narxlarida baholanishi mumkin. Shuni ham aytib o'tish kerakki, tayyor mahsulot korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga kiradi va shu boisdan amaldagi buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi milliy standartlarga (BHMS) binoan, haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha balansda aks ettirilishi kerak.

Mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish rejasi ishlab chiqarish hajmi, nomenklaturasi, ishlab chiqarish va realizatsiya qilish muddatlari ko'rsatilgan yoyma tizimli dasturidan iborat bo'ladi.

Ushbu ishlab chiqarish dasturida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar ifodalanishi kerak:

- ✓ tayyor mahsulotlar (ish va xizmatlar)ning hajmi va turlari;

- ✓ tayyor mahsulotlar (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish grafigi;
- ✓ alohida ishlab chiqarish jarayonlarining tugash muddatlari;
- ✓ har bir mahsulot va har bir ish jarayoni bo'yicha qiymat o'lchovlarida ko'rsatilgan yillik ish hajmi;
- ✓ tovar mahsulotini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish muddatlari;
- ✓ hisobot davri (oyi) boshiga va oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining ulgurji narxlari;
- ✓ ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar;
- ✓ mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan umumiy xarajatlar;
- ✓ ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotning tannarxi;
- ✓ mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun zarur bo'ladigan boshqa sarflar to'g'risida ma'lumotlar.

Bu ma'lumlardan kelib chiqqan holda moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi resurslariga bo'lgan extiyoji aniqlanadi.

Dastlabki texnologik rejada muxandis mahsulotning eng mukammal yaratilish xususiyatlarini yozib beradi, bu texnologik kalkultatsiya varaqchasida batafsil hisoblarini amalga oshirishga yordam beradi.

Dastlabki texnologik rejaning tarkibiga mahsulot, ish va xizmatning nomi, miqdori va turlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning hamma parametrlari, standart talablari va sarflanadigan xarajatlarning turlari va miqdori (texnologik karta) ko'rsatiladi.

Ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish uzoq ishlab chiqarish davrini talab qiladi va tayyorlanayotgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichida bo'ladi, ya'ni hisobot davrining boshi va oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishda qoldiqlar qoladi.

Yalpi mahsulot - ma'lum davr ichida ishlab chiqarishning to'liq hajmini qiymat o'lchovlarida ifodalaydigan ko'rsatkichdir. U hisobot davridagi tayyor mahsulotni va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini o'z ichiga oladi.

Buni quyidagi formula yordamida ifodalash mumkin:

$$YAM=TX+(T_b-T_o)+M$$

bu yerda:

YAM - yalpi mahsulot (so'm);

TX - tovar mahsulotining hajmi (so'm);

T_b - hisobot davrining boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish (so'm);

T_o - hisobot davrining oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish (so'm);

M - buyurtmachilardan jalb qilingan materiallarning hajmi (so'm).

Tayyor mahsulotlar korxonaning omborida ham, buxgalteriyada ham hisobga olib boriladi. Tayyor mahsulotning omborga kelib tushishi birlamchi hujjatlarda qayd etiladi.

Ushbu hujjatlarda buyumlar turlariga ko'ra mahsulot ishlab chiqarishning ular soniga karab natura hisobi yuritiladi. Bunday mahsulotning umumiy hajmi hisobot davri tugaganidan so'ng baholanishi kerak. Ko'rsatilagan xizmatlar va bajarilgan ishlar dalolatnomalar bilan qayd etiladi.

O'zbekistonda hozirgi kunda korxonalarning aksariyat qismi xalq iste'moli mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda sotish bilan shug'ulanmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarida yuzaga keladigan xo'jalik muomalalarini to'g'ri aks ettirish va ularning hisobini tashkil etish korxonaning kelgusi istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi. Ishlab chiqarish korxonalari faoliyati juda keng xo'jalik jarayonini o'zida qamrab oladi ya'ni, ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlash uchun ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini bir vaqtning o'zida amalga oshiradilar. Bu esa korxonaning hisob jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Buxgalteriya hisobida barcha xo'jalik muomalalari to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirilishi uchun har bir alohida jarayonlar bo'yicha hisobning maqsad va vazifalari "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida belgilab berilgan. Qonunga binoan buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlashdir. Ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagi iborat:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarni o'z vaqtida, to'liq hisobda aks ettirish;
- tayer mahsulot xarajati bilan bog'liq hamma xo'jalik muomalalarni hisobda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish, omborlarda mahsulotni belgilangan zahira me'yorlariga rioya qilish hamda saqlanishi ustidan nazorat olib borish;
- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va xarakati, mulkiy xuquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risida to'lik hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;
- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;
- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni aniq tuzishdan iboratdir².

Buxgalteriya hisobining umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib alohida hisob obyektlari bo'yicha hisobning vazifalari belgilab olinadi. Bu esa korxonani xo'jalik jarayonining tashkiliy va texnologik tuzilishiga bog'liqdir.

Ushbu vazifalarni vaqtida bajarilishi korxonaning bir maromda ishlashiga, ombor xo'jaligi va mahsulot sotishni to'g'ri tashkil qilishga, xo'jalik muomalalarning hujjatlarda o'z vaqtida rasmiylashtirilishiga bog'liqdir.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni hisobi mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan barcha moddiy va mehnat sarflarini hisoblab, mahsulot birligining tannarxini aniqlashga xizmat qiladi. Bu bilan asosan boshqaruv hisobi shug'ullanadi. Boshqaruv hisobining eng asosiy qismi hisoblangan ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yuritilishiga e'tibor qaratiladi va bunga asos bo'lib quyidagi qonunchilikka oid me'riy hujjatlar hisoblanadi:

- 1.Qonun hujjatlari;
- 2.Asosiy qoidalar majmui - ya'ni buxgalteriya hisobi milliy standartlari;
- 3.Mamlakat bo'yicha ishlab chiqiladigan, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

² O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni T. 1996 yil.

4. Hisob siyosatini belgilash va hujjatlar aylanmasini tashkil etish bo'yicha korxonada chiqarilgan ichki ish hujjatlari.

Qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa tegishli qonun hujjatlarini kiritishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhdagi me'yoriy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Andozalari kiritiladi. Jumladan mahsulot ishlab chiqarishni tartibga soluvchi "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMAGA muvofiq tayyor mahsulot korxonalarda bo'lgan aktivlar hisoblanadi va ular korxonaning kundalik faoliyatida sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot, tovarlar sifatida korxonaning tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga kiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buxgalteriya hisobi sohasida islohotlarni amalga oshirilishi eng asosiy masalalar bo'yicha o'zgarishlarga olib keldi. Shulardan biri, avval 1995 yilda keyinchalik 1999 yilda "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya hisobida tubdan o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, korxonaning hisobot davridagi foydasi bilan bog'likligidan kelib chiqib taqsimlashni belgilab berdi.

Tayyor mahsulot hisobini tashkil etish mazkur «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi, hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asoslanadi.

Me'yoriy hujjatlarni to'rtinchi guruhiga asosan korxonaning hisob siyosatini belgilash va hujjatlar aylanmasini tashkil etish bo'yicha korxonada ishlab chiqarilgan ichki ish hujjatlari kiradi. Bunda korxonaning hisob obyektlari bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan me'yoriy hujjatlarga asosan o'zining mustaqil hisob tizimini ishlab chiqadi, ya'ni, ishlab chiqarish xarajatlarini turkumlash va ularni hisobda aks ettirish tartibini qat'iy belgilab oladi.

1.2. Tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalarini hisobga olishning mohiyati va ahamiyati.

Korxonalar faoliyatida tayyor mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun korxonalarda avvalo tayyor mahsulot tannarxi va uni hosil qiluvchi xarajatlar o'rganilishi kerak. Tayyor mahsulotlarning tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- Ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- Asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizasiyasi;
- Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar³.

Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari elementi tarkibiga ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulotni tayyorlash (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish)da zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olingan xom-ashyo va materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, tashqi yuridik va jismoniy shaxslardan ko'rsatilgan ish va xizmatlar, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga qilingan xarajatlar, moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi hamda nizomda belgilangan boshqa moddiy xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga xo'jalik yurituvchi subektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq hisoblangan ish haqi, rag'batlantirish tusidagi turli to'lovlar, kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar, kompensatsiya tusidagi to'lovlar, qo'shimcha ishlangan ish vaqti uchun

³ "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom 1999 yil.

to'lovlar (bayram, dam olish kunlari, tunggi vaqtda), ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar, har yilgi va qo'shimcha ta'tillarga to'langan to'lovlar va nizomda ko'rsatilgan boshqa xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urta ajratmalari elementiga budjetdan tashqari majburiy fondlarga qonunchilik bilan belgilangan me'yorlarga muvofiq ajratiladigan to'lovlar kiradi. Masalan, mehnat haqi fondidan sug'urta fondiga majburiy ajratmalar, nodavlat pensiya jamg'armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar, bandlik xizmatiga ajratmalar shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi bo'yicha xarajatlarga asosiy fondlarning dastlabki qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari, lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmalari, shuningdek, nomoddiy aktivlarni har oyda xo'jalik yurituvchi subekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan kelib chiqib hisoblanadigan eskirishi kabi xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarga ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari, ishlab chiqarish hodimlarini xizmat safarlariga yuborish xarajatlari, ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlari, brak tufayli kelib tushadigan yo'qotishlar, kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari, mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari, ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan to'lanadigan nafaqalar, umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda hodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bog'liq xarajatlar, shuningdek, nizomga muvofiq boshqa xarajatlar kiradi.

Mahsulot (ish, xizmat) lar yaratilgandan so'ng odatda malum bir qiymatda baholanadi va sotiladi.

Tayyor mahsulot (ish va hizmat) larni ishlab chiqarish hamda sotish qiymatini belgilashda “Tovar moddiy zaxiralar” nomli 4-son BHMS dan foydalaniladi. 4-sonli BHMS ning 7-bandiga binoan tayyor mahsulotlar eng kam bahoda baholanishi kerak:

- ✓ tannarxda;
- ✓ sof sotilish qiymatida⁴.

Hisobot davri ohirida mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarhini aniqlash mumkin. Lekin mahsulotning ishlab chiqarilishi har kuni sodir bo’ladi, shu sababdan joriy hisobda mahsulotni shartli bahoda baholash kerak. Tayyor mahsulotning operativ hisobi ishlab chiqarish reja tannarhida yoki shartnoma bahosida yohud chakana bahoda yuritiladi.

Oy oxirida tafovut (chetga chiqish) aniqlanadi va hisob narxi haqiqiy tannarxga qadar yetkaziladi. Odatda mahsulotning hisobi - natura, shartli-natura va qiymat ko’rsatkichlarida yuritiladi.

Tayyor mahsulot buxgalteriya hisobida mahsulotning amaldagi ishlab chiqarish tannarxi, reja ishlab chiqarish tannarxi, sotishdagi ulgurji narxlar, erkin sotish narxlari va tariflari, erkin bozor narxlarida baholanishi mumkin. SHuni ham aytib o’tish kerakki, tayyor mahsulot korxonaning aylanma mablag’lari tarkibiga kiradi va shu boisdan amaldagi buxgalteriya hisobi va hisoboti to’g’risidagi milliy standartlarga (BHMS) binoan, haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo’yicha balansda aks ettirilishi kerak⁵.

Xo’jalik yurituvchi subektning ishlab chiqarish tsehida tayyorlangan va malum bir qiymatda baholangan mahsulotlar istemolchilarga sotilgunga qadar saqlab turish maqsadida tayyor mahsulotlar omboriga topshiriladi. Tayyor mahsulotni omborga topshirish qabul qilish topshirish yuk xatlari bilan rasmiylashtiriladi, ularda quyidagi ko’rsatkichlar urin oladi: mahsulotni qabul qilgan omborning raqami (kodi), mahsulotning nomi, uning miqdori, o’lchov

⁴ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to’plami O’zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

⁵ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to’plami O’zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

birligi, narxi va summasi. Bajarilgan ishlar va xizmatlar qabul qilish topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Omborda tayyor mahsulot ombor hisob varaqa (kartochka)larida tabiiy ko'rinishda, materiallar hisobiga o'xshab hisobga olinadi. Ularda har bir kirim va chiqim hujjati bo'yicha ma'lumotlar yoziladi; har bir yozuvdan keyin qoldiq chiqariladi. Topshirish yuk xatlari asosida mahsulot ishlab chiqarish qaydnomalari yuritiladi.⁶

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishdan asosiy maqsad korxonada daromad olinishi nuqtai nazaridan mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga obyektiv va sub'ektiv omillar ta'sirini atroflicha o'rganish asosida ular bo'yicha rejani bajarish, mahsulot tuzilmasini, ishlab chiqarish maromiyligini, mahsulotlar sifatini yaxshilash imkoniyatlarini qidirib topish va amaliyotga tadbiq qilish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Ma'lumki korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini aniqlash va uni baholash muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayonlar korxonalarda uzliksiz ravishda davom etib mahsulotlarni tannarxi va bahosi aniqlab boriladi. Buxgalteriya hisobida mahsulotni baholashdan asosiy maqsad xarajatlarni boshqarish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, ishlab chiqarish xarajatlari ustidan nazorat qilish, boshqaruvchini axborot bilan taminlash, korxonaning kelajakdagi istiqboli uchun kerakli qarorlar qabul qilishdan iborat. Mana shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1) Mahsulot turlari va tarkibini aniqlab olish. Buning uchun korxonani qanday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishini va ularni tarkibiy tuzilishini aniqlab olish lozim.

2) Tannarxni aniqlash usulini belgilab olish. Qanday turdagi mahsulot ishlab chiqarilishi belgilab olingandan so'ng uni tayyorlanish jarayoni, yani oddiy yoki murakkabligi qarab tannarxni aniqlash usuli belgilanadi. Agarda tayyorlanadigan mahsulotimiz kamyob turdagi yoki yuqori qiymatdagi mahsulot bo'ladigan bo'lsa ular buyurtma asosida qabul qilinadi, bunda biz buyurtmali

⁶ O.Bobojonov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. Darslik. – T.: TDIU, 2011. ____.

usuldan foydalanamiz yoki mahsulotimizni tayyorlanish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladigan bo'lsa jarayonli usuldan foydalanishimiz mumkin va h.k.

3) Korxona faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z vaqtida va to'laligicha hisobga olish. Bunda korxona faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni ular ishlab chiqarish xarajatlari, mamuriy xarajatlar, favqulotda va boshqa xarajatlar bo'ladimi barchasi o'z vaqtida va to'laligicha belgilangan moddalar bo'yicha hisobga olish ko'zda tutilgan.

4) Xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni alohida hisob varaqalarda hamda hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish va soliqlarni hisoblash uchun yetarli darajadagi ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash. Bunda alohida hisob varaqlarda aks ettirilgan xarajatlar ularga tegishli bo'lgan hisobotlarda aks ettirilishi lozim. Misol uchun moliyaviy va favqulotda xarajatlar "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2 shakl) da aks ettirilishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun asosiy manbalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) Xo'jalik sub'ektlarining biznes reja ma'lumotlari. Biznes-reja malumotlari korxonani rivojlanishi uchun talab etiladigan moliyaviy mablag'larni va kutilayotgan daromad darajasini ko'rsatadi. Biznes - rejani ishlab chiqish va uni rivojlantirish muhim, chunki biron-bir investor yoki qarz beruvchi sizning biznesingizga qo'shilishdan avval biznes-rejangiz bilan qiziqadi

2) "Tayyor mahsulotlar harakati" to'g'risidagi 16-sonli qaydnoma. Bu qaydnoma to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'lim "Tayyor mahsulotning pul shaklidagi harakati" deb, unda mahsulotning hisobot oyi boshlanishiga qoldig'i, omborga qabul qilingani, haridorlarga jo'natilgani va hisobot oyi oxiriga qoldig'i, hisobda qabul qilingan baho hamda haqiqiy tannarxda ko'rsailadi. 2-bo'lim "Jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar" deb nomlanib, unda jo'natilgan mahsulotlarning analitik hisobi haridor korxonalar nomiga yozilgan har bir to'lov talabnomasi bo'yicha alohida yuritiladi. 3-bo'lim "To'langan va to'lanmagan schotlar haqida umumiy ma'lumotlar" deb nomlanib, unda jo'natilgan va sotilgan

mahsulotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar ko'rsatiladi. 4-bo'limda ham boshqa korxonalar bilan hisob-kitob ma'lumotlari keltiriladi.

3) “Buxgalteriya balansi” (1 shakl) ma'lumotlari. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'lari doimo ishlab chiqarish jarayonida harakatda bo'lib, davrlar bo'yicha miqdor va qiymat jihatdan o'zgarib boradi. Ularning xo'jalik faoliyati ustidan rahbarlik qilish va boshqarish uchun sub'ekt qanday mablag'larga ega, ularning tarkibi va qaerda joylashganligi hamda bu mablag'lar qanday manbalardan tashkil topganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Xo'jalik mablag'larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning kelib chiqish manbalaridagi o'zgarishlarni bir – biriga solishtirib, ma'lum bir sanaga pul o'lchovida umumlashtirib aks ettirish buxgalteriya balansi yordamida amalga oshiriladi.

Buxgalteriya balansida sub'ektning xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari umumlashtirilib, odatda, kunning oxiriga (banklarda) yoki hisobot oyidan keyingi oyning birinchi kuniga pul o'lchovida tuziladi.

4) “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” (2- shakl) ma'lumotlar. Ushbu hisobotda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy va moliyaviy faoliyati natijasida olgan foyda yoki ko'rgan zararlarining miqdori tegishli moddalar bo'yicha yoritiladi.

5) Buxgalteriya hisobining tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi schot ma'lumotlari va boshqa turdagi qo'shimcha ma'lumotlar. 21-sonli BHMS ga muvofiq tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schotida olib boriladi. Ushbu schot aktiv schot bo'lib, ko'payishi va qoldig'i debet tomonida, kamayishi kredit tomonida, qoldig'i ma'lum bir sanaga tugallanmagan ishlab chiqarishning puldagi ifodasida aks ettiriladi. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq xarajatlar kiradi. Masalan, ishlab chiqarish jamiyatidagi material, ishlab chiqarish harakteridagi mehnat ga haq to'lash, ijtimoiy sug'urtaga ajratma xarajatlari, ishlab chiqarish harakteridagi asosiy fondlar hamda nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va

boshqa ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Tayyor mahsulotlarni hisobga olish uchun esa, 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotidan foydalaniladi. 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotida tayyor mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari o'simlikchilik mahsulotlari, chorvachilik va qayta ishlangan mahsulotlarining harakatini biznes-rejadan kelib chiqib, yil davomida prognoz tannarxi bo'yicha hisobga oladi. Yil oxirida tayyor mahsulotning haqiqiy va prognoz tannarxi o'rtasida aniqlangan farq mahsulotlar schotiga hisobot yili oxiridagi keltirilgan mahsulotlarning qoldig'iga taalluqli bo'lgan ulushlarda o'tkaziladi.

Sotish uchun tayyorlangan (olingan) tayyor mahsulotlar, shu jumladan, qisman korxonaning o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotlarning kirim qilinishi 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" schotining debetida xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Umuman olganda, hozirgi kunda tayyor mahsulotni ishlab chiqarish, baholash va uni qabul qilish jarayoni hisobi bo'yicha uslubiy hamda nazariy muammolar to'la hal etilgan.

2. BOB. "Magnit" MCHJda tayyor mahsulot va uni baholash hamda qabul qilish muomalalarini buxgalteriya hisobida yuritilishi.

2.1. "Magnit" MCHJda buxgalteriya hisobi va hisobotning o'ziga xos xususiyatlari.

Buxgalteriya hisobi to'g'risida Qonun, Soliq Kodeksi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) va boshqa me'yoriy hujjatlari, har bir korxona tomonidan hisob siyosatini ishlab chiqishni, unga to'liq amal qilishni taqoza etadi.

Ushbu me'riy hujjatlarga, jumladan BHMS № 1 "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ning 3-punktiga muvofiq, hisob siyosati deganda, korxona rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha qabul qilingan tamoyillar va tartiblar majmuasi tushuniladi⁷.

Hisob siyosati buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha korxonaning o'ziga xos rejasi hisoblanadi. Bu reja, odatda, rasmiy hujjat sifatida rasmiylashtiriladi. U korxonaning bosh hisobchisi tomonidan yilning oxirida kelgusi yil uchun ishlab chiqiladi va korxona rahbari tomonidan buyruq yoki farmoyish bilan tasdiqlanadi.

Hisob siyosati BHMS №1 ning 56- punktiga muvofiq taqvim yili maboynida doimiy harakterga ega bo'lishi lozim. Uni yil ichida sababsiz o'zgartirish mumkin emas. BHMS № 1 ning 56- punktiga muvofiq tasdiqlangan va foydalanilyotgan hisob siyosati yil ichida qo'yidagi hollarda o'zgartirilishi mumkin:

- Korxonaning statusi va tarkibiy tuzilishi o'zgartirilganda;
- Mulk egalari o'zgarganda;
- Davlat qonunlari o'zgarganda;
- Hisobning yangi shakllari va yuritish usullari joriy etilganda⁸.

Hisob siyosatiga kiritilgan o'zgartirishlar asoslangan bo'lishi, shuningdek korxona rahbarining buyrug'i yoki farmoyishi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Talab va so'rovlarga ko'ra hisob siyosati prokuratura, sud va arbitrajga, investorlarga, aksionerlarga, kreditorlarga, auditorlik firmalariga va boshqa

⁷ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami O'zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

⁸ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami O'zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

qiziquvchilarga ham taqdim etilishi mumkin. Korxonaning o'z xodimlari uchun hisob siyosati ochiq bo'lishi lozim.

Korxonaning hisob siyosatidan har bir qiziquvchi o'z maqsadlarida foydalanadilar. Masalan, soliq idorasi uchun ushbu hujjat korxonada soliqlar hisob-kitoblarini to'g'riligini tekshirish, hisobni to'g'ri yuritilganligini nazorat qilish maqsadida zarur. Auditorlik firmalari hisob siyosatini o'rganish asosida uni to'g'ri tuzilganligi to'g'risida xulosa qiladilar, shuningdek unga qanchalik amal qilinayotganligiga baho beradilar. Investorlar, aksionerlar, kreditorlar uchun hisob siyosati o'z mablag'larini ushbu korxonaga qo'yish yoki qo'ymaslik bo'yicha qaror qabul qilishda asos bo'lib hisoblanadi.

Hisob siyosati rasmiy hujjat sifatida ma'lum shakl va tarkibga ega bo'lishi kerak. BHMS № 1 ning 96-punktiga muvofiq hisob siyosatida quyidagi tarkibiy elementlar o'z aksini albatta topishi lozim:

- Korxona aktivlarini baholash turlari va usullari;
- Amortizatsiyani hisoblash usullari;
- Rezervlarni tashkil qilish;
- Tovar-moddiy boyliklarni baholash va hisobga olish usullari;
- Tadqiqot va rivojlanishga sarflangan harajatlarni tan olish va hisobga olish;
- Tannarxni kalkulyatsiya qilishning usullari;
- Moliyaviy hisobotni konsolidatsiya qilish tartibi;
- Pul oqimlari to'g'risida hisobotni tuzish usullari;
- Buxgalteriya hisobining ishchi schetlar rejasi⁹.

Hisob siyosatida yuqorida keltirilgan ma'lumotlar alohida boblar, paragraflar ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim. Korxonaning moliyaviy hisobotini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadigan boshqa hollar va tartiblar ham hisob siyosatida aks ettirilishi mumkin.

Korxonada ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hisob siyosatiga to'liq amal qilinishi lozim. Buning uchun korxonada tegishli shart-sharoitlar yaratilgan

⁹ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami O'zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

bo'lishi kerak. Jumladan, xodimlar o'rtasida bajariladigan ishlar aniq taqsimlangan bo'lishi kerak. Bunday taqsimotni bosh hisobchi amalga oshiradi. U har bir hisobchiga yuritiladigan buxgalteriya hisobi schetlarini, hisob registrlarini ochish, yuritish, yopish tartiblari va muddatlarini belgilab beradi.

Bosh hisobchi korxonaning buxgalteriyasi, uning bo'limlari to'g'risida Nizomni ishlab chiqishi, uni rahbariyat tomonidan tasdiqlanishini ta'minlashi kerak. Nizomda har bir bo'lim xodimining lavozimiga qarab bajaradigan ishlari va majburiyatlari aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Hisob siyosatiga amal qilishning muhim shartlaridan biri bo'lib korxonada hujjatlar aylanishining aniq grafigini ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi hisoblanadi. Bunday grafiklarni jadval yoki tarmoqli grafik ko'rinishida ifodalash mumkin.

Hisob siyosatiga amal qilishning yana bir muhim shartlaridan biri bo'lib hisob xodimlari faoliyatiga baho berish yoki reyting tizimini mavjudligi hisoblanadi. Ishga baho berish yoki reyting tizimiga amal qilish hisobchilarni rag'batlantirish (yutuqlar uchun), yoki ularga nisbatan jazo choralarini ko'rish (xato-kamchiliklar uchun) orqali amalga oshirilishi lozim. Hisobchilar ishga baho berish reyting tizimini mavjudligi va uni doimiy tarzda hisobchilar o'rtasida e'lon qilib borish buxgalteriya ishini doimiy yaxshilanib borishiga katta ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Hisob siyosatiga amal qilishning muhim shartlariga yana doimiy harakatdagi ilmiy–amaliy seminarlarni uyushtirishni, hisobchilarning malakasini doimiy tarzda oshirib borishni va boshqalarni kiritish mumkin.

“Magnit” mas'uliyati cheklangan jamiyati Andijon shahridagi pishiriqlar, tortlar, muzqaymoq va shu kabi shirinliklar ishlab chiqariga ixtisoslashgan korxonadir. Uning mahsulotlari firma magazinlarida, boshqa savdo magazinlarida sotiladi. Korxonaning savdo brendi shu kungacha shakllanib, bozor strategiyasini kengaytirish orqali ishlab chiqarish hajmi hamda ishlovchilar sonini yildan-yilga o'rttirib bormoqda.

Korxonada hozirgi kunda 87 ta ishchi-xodim mehnat faoliyati bilan shug'illanmoqda. Ular tomonidan korxonada har oyda 15 xil assortimentdan ortiq holdagi shirinliklar ishlab chiqarilmoqda.

Issiq mavsumda korxonada muzqaymoq ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yiladi. Bu soha ham daromadli sohalardan biri sifatida qaraladi. Korxonada ishlovchilarning aksariyati yosh mutaxassislar va kollej bitiruvchilaridir.

Kelgusida korxona o'z faoliyatini yanada kengaytirib, Farg'ona vodiysi aholisiga o'z mahsulotlarini taklif qilishni rejalashtirmoqda.

Korxona mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lib, unda buxgalteriya hisobi kompyuterda yuritiladi. Hozirda kichik biznes sub'ekti sifatida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimini yuritadi.

Korxona bosh hisobchisi har yilga mo'ljallab hisob siyosatini tuzadi va raxbar tomonidan tasdiqlanadi. Hisob siyosatida korxona buxgalteriya hisobi obyektlari, jumladan, aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad, xarajat, foyda va zarar hisobi tartibi ko'rib chiqilgan.

Tayyor mahsulotlar ham korxona hisob siyosati bo'yicha hisobga olinadi. Unda korxona tayyor mahsulotlarining o'ziga xos xususiyati, tez buzilishi, o'rash va yetkazib berishning qiyinligi, saqlash jarayonida o'zga xos talablar mavjudligi e'tiborga olingan.

Umuman olganda, "Magnit" MCHJ hisob siyosati buxgalteriya hisobiga oid qonunchilik hujjatlari, buxgalteriya hisobi milliy standartlari, korxonaning ichki tartiblarini e'tiborga olgan holda tayyorlangan. Bu korxonada yuritilayotgan buxgalteriya hisobi yuz berayotgan xo'jalik jarayonlarini to'liq, aniq va o'z vaqtida hisobga olish imkoniyatini yaratmoqda.

2.2. "Magnit" MCHJda tayyor mahsulot va uni baholashni hisobga olish.

"Magnit" MCHJda tayyor mahsulot deganda ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlaridan o'tgan, ortiq qayta ishlovni talab qilmaydigan, o'zining sifati bo'yicha davlat standartlariga, texnik shartlarga javob beradigan va omborxonalarga qabul qilingan tayyor buyumlar tushuniladi.

"Magnit" MCHJning ishlab chiqargan tayyor mahsulotlar turlicha bo'lib, asosan shirinliklar, pishiriqlar, muzqaymoqlar va shu kabi mahsulotlar hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar korxonada olib borilgan ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi hisoblanadi. Ularni tayyorlashga ketgan harajatlar korxonaning ishlab chiqarish harajatlarini, shuningdek tayyor mahsulotning tannarxini tashkil qiladi.

Tayyor mahsulotlar korxonaning aylanma aktivlarining muhim turi hisoblanadi. Ularning aylanish tezligi talab va taklifga, sifatiga, ishlab chiqarilgan hajmiga, bahosiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida tayyor mahsulotlarning haridorligiga sotish hajmi, pul tushumlari, daromad va boshqa ko'rsatkichlar bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham korxonada tayyor mahsulotlar buxgalteriya hisobining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi.

4-son BHMS ga muvofiq tayyor mahsulotlar quyidagi baholarda hisobga olinadi:

- Ishlab chiqarishdan olinganda – haqiqiy tannarxi bo'yicha;
- Ta'sischilardan olinganda – kelishuv bahosida;
- Qaytarib bermaslik sharti bilan bepul kelib tushganda – ekspert yo'li bilan aniqlangan qiymatda;
- Bahosini real aniqlash qiyin bo'lgan buyumlar bo'yicha- rejali (normativ) bahoda;

- Xaridorgirligini yo‘qotgan, sifati past yoki shikastlangan hollarda- sotish qiymatida (tannarxdan past bo‘lgan qiymatda)¹⁰.

Tayyor mahsulotlar qiymatini baholash xuddi ishlab chiqarish zahiralarini kabi korxona hisob siyosatida belgilangan FIFO yoki AVECO usullardan birida amalga oshirilishi mumkin. “Magnit” MCHJda tayyor mahsulotlarni baholash hisob siyosatida AVECO usulida hisobga olinadi.

“Magnit” MCHJda ham mahsulot tannarxi ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilish yo‘li bilan topiladi. Kalkulyatsiya, odatda bir xil nomdagi mahsulotga (ish yoki xizmat turiga) tuziladi. Amaliyotda normativ (rejali) kalkulyatsiya, haqiqiy tannarx kalkulyatsiyasi kabi kalkulyatsiyaning turlari keng ishlatiladi.

Normativ (rejali) kalkulyatsiyada qabul qilingan mahsulot (ish, xizmat) birligining tannarxi maxsus tasdiqlangan resepturalar asosida sarflanadigan harajatlar summasini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulot(ish, xizmat)ning soniga bo‘lish yo‘li bilan topiladi.

1-jadval.

1 porsiya keksning normativ (rejali) tannarxini kalkulyatsiyasi.

100 porsiya keksga ketadigan harajatlar	Summa
1. Un 6 kg *2200 so‘m	13200
2. Shakar 5 kg *3500 so‘m	17500
3. Yog‘ 3 kg *7100 so‘m	21300
4. Tuxum 80 ta*300 so‘m	24000
5. Quyiltirilgan sut 6 kg *8000 so‘m	48000
6. Boshqa qo‘shimchalar	5000
7. Jami harajatlar	129000
1 porsiya keksning o‘rtacha normativ tannarxi	1290-00 so‘m

¹⁰ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to‘plami O‘zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

Masalan, 100 porsiya keks (150 grammlik) tayyorlash uchun resepturada quyidagi harajatlar ko'zda tutilgan deylik: un –6 kg, shakar – 5 kg, yog' –3 kg, tuxum –80 ta, quyiltirilgan sut –6 kg, boshqa qo'shimchalar - 1 porsiyaga 50 so'm miqdorida. Ishlatiladigan masalliqalar bozordan sotib olinadi. Ushbu shartli ma'lumotlarga ko'ra 1 porsiya keksning normativ(rejali) tannarxini kalkulyatsiyasi quyidagicha bo'ladi (1-jadval).

Normativ(rejali) kalkulyatsiya asosida hisoblangan mahsulot tannarxi hisobot davri ichida hisob bahosi sifatida qo'llaniladi. Chunki hisobot davri tugamaguncha mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan barcha ishlab chiqarish harajatlari to'liq aniqlab bo'lmaydi, demak mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxini ham hisoblab bo'lmaydi.

Mahsulot (ish, xizmat)ning haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun hisobot davri oxirida ushbu mahsulot (ish, xizmat) uchun haqiqatda qilingan harajatlari summasi hisob registrlaridan olinadi, masalan bosh kitobdan. Jami harajat summasi ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) ning umumiy soniga bo'linadi va shu yo'l bilan bir birlik mahsulot (ish, xizmat)ga to'g'ri keladigan tannarx summasi hisoblanadi. Misol uchun, "Magnit" MCHJda 1 dona "Izbushka" nomli muzqaymoqning normativ (rejadagi) ishlab chiqarish tannarxi kalkulyatsiyaga muvofiq – 1200 so'm, aprel oyida 20 ming dona muzqaymoq qadoqlangan va jami ketgan ishlab chiqarish harajatlari bosh kitob bo'yicha 25000000 so'm, unda 1 dona qadoqlangan muzqaymoqning haqiqiy tannarxi 1250 so'm bo'ladi ($25000000 / 20000$ dona).

"Magnit" MCHJda tannarxni kalkulyatsiyasi asosida mahsulot (ish, xizmat)ning sotish bahosi ham kalkulyatsiya qilinadi. Sotish bahosini kalkulyatsiyasining tannarxning kalkulyatsiyasidan farqi shundaki, unda sotishda tannarx ustiga qo'yiladigan qo'shimcha qiymatlar hisobga olinadi. Bunday qiymatlar bo'lib, jumladan korxonaning rentabellik darajasi bo'yicha oladigan foydasining summasi, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, savdo ustamasi, ovqatlanish korxonasining ustamasi hisoblanadi. Misol uchun, 1 kg shirinlikning ishlab chiqarish tannarxi kalkulyatsiyasi taxminan quyidagicha bo'ladi.

2-jadval.**Sotish bahosi kalkulyatsiyasi (ishlab chiqarish sexida)**

Baho elementlari	Summa, so'mda
1. Bir kg shirinlikning o'rtacha ishlab chiqarish tannarxi	12000
2. Korxona foydasi 20%	14400
3. Korxonaning sof sotish bahosi	14400

Bir kg shirinlikning chakana savdo magazinida sotilishi vaqtida sotib olish bahosi ustiga savdo ustamasi qo'yiladi. Bu holda bir shisha aroqning sotish bahosining kalkulyatsiyasi quyidagicha bo'ladi.

3-jadval.**Sotish bahosi kalkulyatsiyasi (firma magazinida).**

Baho elementlari	Summa, so'mda
1. Bir kg shirinlikning sotib olish bahosi	14400
2. Savdo ustamasi 20%	2880
3. Tovarining chakana sotish bahosi	17280

"Magnit" MCHJ ga qarashli kafelarga kelib tushgan tovarlar ustiga savdo ustamasidan tashqari kafening ko'rsatgan xizmatlari uchun ham qo'shimcha ustama qo'yiladi. Bu holda, masalan, dada, bir kg shirinlikning sotish bahosining kalkulyatsiyasi quyidagicha bo'ladi (4-jadval).

4-jadval.**Sotish bahosi kalkulyatsiyasi (kafeda)**

Baho elementlari	Summa, so'mda
1. Bir kg shirinlikning sotib olish bahosi	14400
2. Savdo ustamasi 20%	2880
3. Tovarni chakana sotish bahosi	17280
4. Kafe xizmati ustamasi 30%	5184
5. Shirinlikning kafe menyusidagi bahosi	22464

Ko'rib chiqilgan barcha misollarimiz "Magnit" MCHJning 2015 yil 1 chorak hisobotlari ma'lumotlari bo'lib, korxonada tayyor mahsulotlarni baholash shu tartibda amalga oshiriladi.

2.3. "Magnit" MCHJda tayyor mahsulotlarni qabul qilish muomalalari hisobi va hujjatlarda aks ettirilishi.

"Magnit" MCHJda tayyor mahsulotni ishlab chiqarishdan omborga topshirish qabul qilish, topshirish yuk xatlari bilan rasmiylashtiriladi. Bunday hujjatlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- mahsulotni topshirayotgan sexning nomi;
- uni qabul qilayotgan ombor;
- mahsulotning nomenklatura kodi-raqami va nomi;
- o'lchov birligi;
- mahsulotning nomi;
- topshirish sanasi;
- javobgar shaxslarning imzolari.

"Magnit" MCHJda qabul qilish-topshirish yuk xatlarining aniq mazmuni mahsulotning texnologik xususiyatlariga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotining sifatiga bog'liq. Ularga oxirgi nazorat bo'limining vakili, mahsulot topshirayotgan sex xodimi, ombor mudiri (xodimi) yoki mahsulotni asrash uchun qabul qilayotgan boshqa javobgar shaxs imzo chekadi.

Qabul qilish-topshirish yuk xatlari bir martalik bo'ladi. Bularni topshiruvchi sex xodimi ikki nusxada yozadi. Bir nusxasi ombor mudiriga beriladi, ikkinchisi esa, mahsulot qabul qilingani haqidagi tilxat bilan sexda qoladi.

"Magnit" MCHJda buxgalteriyada topshirilgan yuk xatlar asosida har oyda tayyor mahsulot ishlab chiqarishning jamg'aruv qaydnomalari yuritiladi. Oy tugaganidan keyin qaydnomalarda mahsulot turlariga ko'ra qancha tayyor mahsulot ishlab chiqarilgani hisoblab chiqariladi va haqiqiy tannarxga ko'ra baholanadi.

"Magnit" MCHJda tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi mahsulot turlari yoki buyurtmalari bo'yicha asosiy ishlab chiqarishning analitik hisobi ma'lumotlariga ko'ra belgilanadi.

Har bir mahsulotning turi bo'yicha belgilangan tannarx summasi tayyor mahsulotni ishlab chiqarish qaydnomasiga yozib qo'yiladi, so'ngra jamlanadi.

Shunday qilib, butun ishlab chiqarishning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi xal bo'ladi.

“Magnit” MCHJda omborga qabul qilingan va xaridor korxonalarga jo'natilgan mahsulot buxgalteriya hisobida haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Biroq sexlardan mahsulot omborga qabul qilinganda uning haqiqiy tannarxi ma'lum bo'lmagani uchun mahsulotning xarakatini hisobda qabul qilingan reja tannarxi hisobga olinadi, ya'ni baholanadi. Hisobot oyi davomida mahsulot reja tannarxi bilan haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq alohida hisobga olinadi.

“Magnit” MCHJda tayyor mahsulotlarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar";

2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar";

2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar".

Ushbu schotlardan omborda qancha tayyor mahsulot borligi va uning xarakati to'g'risidagi axborotni aks ettirishda foydalaniladi.

2800-"Tayyor mahsulot" schotlarining debeti 2010-"Asosiy ishlab chiqarish", 2310-"Yordamchi ishlab chiqarish" schotlarining krediti bilan o'zaro bog'lanadi, krediti bo'yicha esa 9100-"Sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar"ning tannarxini hisobga oluvchi schotlar bilan bog'lanadi va bunda 9110-"Sotilgan mahsulotlarning tannarxi" schoti qo'llaniladi.

“Magnit” MCHJda mahsulot tayyorlashning analitik hisobi "Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning qaydnomasi"da natura va qiymat ifodasida yuritiladi.

Bu ma'lumotlardan ishlab chiqarish hajmi bo'yicha rejaning bajarilishini nazorat qilishda, jamlama hisob varaqlarida buxgalteriya yozuvlarini qayd qilishda foydalaniladi. Tayyor mahsulotlarning kirimini qayd etish bilan bog'liq xo'jalik muomalalari 10/1-jurnal-orderda amalga oshiriladi.

“Magnit” MCHJda tayyor mahsulot kirim quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 2800-"Tayyor mahsulotlar" schotlari. 24000000 so'm

Kredit 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" schoti. 24000000 so'm.

“Magnit” MCHJda ombordagi tayyor mahsulotlar ombor hisobida miqdor va qiymat ifodasida hisobga olinadi yoki materiallarni hisobga olishga o'xshab turlari, soni, navi va bahosi ko'rsatilib hisobga olinadi.

Varaqchalar (kartochkalar) “Magnit” MCHJning buxgalteriyasi tomonidan tayyor mahsulotning har bir turi uchun ochiladi va tilxat olib ombor mudiriga topshiriladi. Varaqchalarga yozuvlarni moddiy javobgar shaxslar muomalalar sodir bo'lishi sari, tayyor mahsulotlarning kelib tushishi va chiqib ketishi to'g'risidagi hujjatlarga asoslanib yoziladi. Varaqchada har bir yozuvdan keyin yangi qoldiq hisoblab topiladi. Varaqchalar omborda maxsus qutilarda saqlanadi. Har bir qutida varaqlar tayyor mahsulotlarning guruhlarini, ular ichida esa raqamlari bo'yicha joylashtiriladi.

“Magnit” MCHJning moddiy javobgar shaxslari har kuni barcha birlamchi hujjatlarni buxgalteriyaga topshiradi. Buxgalteriya xodimi muttasil, kamida haftasiga bir marta bevosita omborning o'zida ombor mudiri ishtirokida mahsulotning xarakati xususidagi birlamchi hujjatlarning ma'lumotlarini ombor hisobi varaqchalariga o'tkazishning to'g'riligini tekshirib ko'radi va buni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Aniqlangan tafovutlar va xatolar shu yerning o'zida bartaraf etiladi. Ayni vaqtda birlamchi hujjatlar buxgalteriya xodimiga topshiriladi.

“Magnit” MCHJda birlamchi hujjatlarni qabul qilish-topshirish maxsus reyestr bilan rasmiylashtiriladi. Lekin moddiy javobgar shaxslarning roziligi bilan har bir muomala bo'yicha yozuvlarning tekshirilgani to'g'risida ombor hisob varaqchasidagi buxgalteriya xodimining imzosi hujjatlarni qabul qilish-topshirish uchun asos bo'ladi.

Oy oxirida “Magnit” MCHJda qaydnoma har bir nomenklatura raqami bo'yicha ombor hisobi varaqchalaridan oy oxirida tayyor mahsulot qoldiqlarining qancha bo'lganini yozib qo'yish uchun omborga beriladi. SHundan so'ng qaydnoma yana buxgalteriyaga beriladi, bu yerda esa qoldiqlarning miqdori aniqlanadi va summasi hisoblab chiqiladi.

Bundan tashqari, buxgalteriyada tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishning natura va summa ifodasidagi qaydnomasi, shuningdek 16-"Tayyor mahsulotlar xarakatini, tayyor mahsulot hamda moddiy boyliklarni yuklab jo'natish va sotish"ning hisobi qaydnomasi ham yuritiladi.

16-qaydnomaning 1-bo'limida bir xil mahsulot guruhlari bo'yicha hisob narxlari hamda amaldagi tannarxga ko'ra ombordagi tayyor buyumlarning xarakati ko'rsatilgan bo'ladi. Bu yerda qolgan va ishlab chiqarishdan kelgan tayyor mahsulotning amaldagi tannarx salmog'ining hisob narxlari bo'yicha qiymati aniqlanadi. Ushbu foiz nisbatidan buxgalteriyada hisobot oyida yuklab jo'natilgan, xaridorlar tomonidan qaytarilgan va oy oxirida qolgan tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblashda foydalaniladi.

Oy oxirida omborda qolgan hisob narxlaridagi tayyor mahsulotning qoldig'i (ombordagi mahsulot qoldig'ining hisobi qaydnomasiga binoan yoki moddiy javobgar shaxsning hisobotiga ko'ra) 16-"Tayyor mahsulotlarning xarakati, ularni yuklab jo'natish va sotish" qaydnomasining 1-bo'limida aks ettirilgan shunga mos qoldiq bilan solishtiriladi. Qoldiqlarning bir xilligi hisobning to'g'riligidan dalolat beradi, bir xil chiqmasligi esa, xatolar borligini ko'rsatadi, bu xatolarni esa o'z navbatida bartaraf etish lozim.

Tayyor mahsulotlarning sintetik hisobi 2800 schotlarda yuritiladi. Bu schotlarning debeti 2010-"Asosiy ishlab chiqarish", 2310-"YOrdamchi ishlab chiqarishlar" schotlarining krediti bilan, krediti esa 9110-"Sotilgan mahsulotlarning tannarxi" schotining debeti bilan korrespondentsiyalanadi.

2.4. "Magnit" MCHJda tayyor mahsulotlarni sotish hisobi.

Tayyor mahsulotlarning xaridorga jo'natilgani, ishlar bajarilgani va xizmatlar ko'rsatilgani, vositachilik asosida yoki boshqa shunga o'xshash asoslarda tayyor mahsulotlar sotish uchun o'tkazilganligi xususida tegishli hujjatlar (yuk xatlar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari) bilan rasmiylashtirilganida mahsulot (ish, xizmat)larni yuklab jo'natilgan (sotilgan) mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar deb ataladi.

"Asosiy xo'jalik faoliyatdan olingan daromadlar" nomli 2-BHMSga muvofiq mahsulot ombordan chiqarilgan yoki to'lov hujjatlari bankka topshirilgan vaqtdan boshlab, xaridorlar ularga haq to'lashidan qat'iy nazar mahsulot sotilgan deb hisoblanadi.

"Magnit" MCHJda tayyor mahsulot xaridorlarga mahsulot yetkazib berish shartnomasi va yuklab jo'natish rejasiga ko'ra jo'natiladi. SHartnomada yetkazib berilayotgan mahsulotning nomi, miqdori, turi va sifat darajasi yoziladi, narx, hisoblashishlar tartibi, mahsulot yetkazib beruvchi bilan xaridorning to'lov va pochta rekvizitlari hamda boshqa bir qancha ma'lumotlar qayd etiladi. Mahsulot sotish bo'limi shartnomaga asosan tayyor mahsulot omboriga mahsulotni xaridorga yuklab jo'natish haqida buyruq beradi. Maxalliy xaridorlarga mahsulot ishonchnoma asosida, boshqa shaharlik xaridorlarga esa farmoyish va yuk xat asosida beriladi.

"Magnit" MCHJning buxgalteriyasi mahsulotni jo'natish hujjatlari asosida xaridor, buyurtmachi nomiga to'lov hujjatlarini, ya'ni schot-faktura, to'lov talabnomasi va to'lov talabnoma-topshiriqnomalarini yozib beradi. Bu hujjatlar mahsulot sotib oluvchini tayyor mahsulot yuklab jo'natilganidan xabardor qiladi va uning haqining to'lanishini talab qiladi. To'lov hujjatlarining nusxalari buxgalteriyada qoladi va jo'natilgan mahsulotlarni hisobga olishda asos bo'lib xizmat qiladi.

"Magnit" MCHJda tayyor mahsulotning analitik hisobi 16-qaydnomada yuritiladi. Bu qaydnomaning 1-bo'limi "Tayyor mahsulotning pul shaklidagi xarakati" deb nomlanadi, unda mahsulotning hisobot oyi boshlanishiga qoldig'i,

omborga qabul qilingani, xaridorlarga jo'natilgani va hisobot oyi oxiriga qoldig'i, hisobda qabul qilingan baho hamda haqiqiy tannarxda ko'rsatiladi.

“Magnit” MCHJda jo'natilgan mahsulotni analitik hisobga olish quyidagilarni ko'zda tutadi:

- mahsulotni jo'natishga doir muomalalarni xaridor manziliga yuborilgan to'lov hujjatlari asosida joriy ro'yxatdan o'tkazish zarurligini;
- yuk-xati va to'lovnomalarni to'lashdan bosh tortilgan taqdirda ularni kuzatib borishni;
- har bir oy davomida qayd etilgan yozuvlarni umumlashtirishni.

Bu shunday tartibda amalga oshiriladiki, unda jamlama schotlarga doir buxgalterlik ma'lumotlari ko'zga tashlanib turadi.

U 16-"Tayyor mahsulotlarning xarakati, ularni jo'natish va sotishni hisobga olish" jurnal-orderining 1-"Mahsulotni jo'natish, uni berish va sotish" nomli bo'limida yuritiladi. Jurnal-orderning bu bo'limida har bir to'lov talabnoma-topshiriqnomasi (schot-faktura) qayd etiladi. Ushbu to'lov talabnoma-topshiriqnomasining tegishli ustunlarida xaridorlar, tayyor mahsulotlar, ularning miqdori va qiymati, xaridorlar tomonidan to'lanadigan transport xarajatlari, shuningdek yuk (ish, xizmat)larni oluvchilar hisobiga o'tkaziladigan ustama va chegirmalar ko'rsatiladi. Bu yerda mahsulotni jo'natish, sotish (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish) hamda xaridorlar va buyurtmachilar bilan amalga oshirilgan hisoblashishlarning analitik va sintetik (jamlama) hisobi birlashtiriladi.

“Magnit” MCHJda mahsulotlarni jo'natish va sotishning analitik hisobini tashkil etish ayrim mahsulot turlari bo'yicha, to'lov hujjatlari bo'yicha natura ifodasida ham amalga oshiriladi. Ushbu tadbir ikki xil narxda - sotilish narxlarida va haqiqiy tannarx bahosida amalga oshiriladi.

“Magnit” MCHJda 16-qaydnomaning 2-bo'limini ochish va yuritish tartibi quyidagichadir: 16-qaydnoma har oyda ochiladi. Ushbu qaydnomani ochishda unga o'tgan oydagi qaydnomaga oid to'lanmagan to'lovlarning oy boshidagi qoldig'i ko'chirib o'tkaziladi. SHundan so'ng jo'natish va to'lov hujjatlari asosida joriy oyga doir yozuvlar qayd etiladi. Bank ko'chirmalarining kelib tushishiga

qarab qaydnomaning tegishli ustunlarida to'lovnomalar to'langani haqida tegishli yozuv qayd etiladi. Unda tushum sanasi, summasi va kaysi schotga o'tkazilgani yoki hisoblashish kaysi yo'l bilan amalga oshirilgani ko'rsatiladi. Shu bilan 2-bo'limi yakunlanadi.

"Tayyor mahsulotlarning xarakati, ularni jo'natish va sotishni hisobga olish" qaydnomasining 3-bo'limi "To'langan va to'lanmagan schotlar haqida umumiy ma'lumotlar" deb nomlanadi. Unda jo'natilgan va sotilgan mahsulotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ushbu qaydnomaning 4-bo'limida soliq yuzasidan soliq muassasalari bilan hisoblashishga doir ma'lumotlar aks ettiriladi.

Mahsulotning sotilishi "Magnit" MCHJ faoliyatining asosiy salmoqli ko'rsatkichi hisoblanadi. Sotish jarayoni mahsulot (ish, xizmat) larni jo'natish va sotishga doir xo'jalik muomalalarining yaxlitligi bilan bog'liqdir.

Amaldagi qoidaga muvofiq 1 yanvar 1998 yildan qabul qilingan hisoblash usuliga muvofiq mahsulotlar (ish, xizmatlar) jo'natilgan sana yoki bankka to'lov-hisoblashish hujjatlarini taqdim etgan kun sotuv amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi. Lekin xalkaro standart bo'yicha kassa usuli, ya'ni sotilgan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlardan mablag'larning kelib tushishi sanasi ham tavsiya qilinadi.

"Magnit" MCHJda mahsulot va tovarlarni sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishga doir axborotlarni umumlashtirish, shuningdek sotuv natijalarini aniqlash uchun schotlar rejasida 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" jamlama schoti ko'zda tutilgan.

9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schotining debetida sotilgan yoki jo'natilgan mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi, mahsulotni sotish xarajatlari, mahsulot narxiga ustama ravishda to'lanadigan idish bahosi, qo'shilgan qiymat solig'i summasi, aktsiz va bojxona soliqlari summasi aks ettiriladi. Ushbu summalar asosan 9110-"Sotilgan mahsulotlarning tannarxi", 9410 va boshqa schotlarning kreditidan olinadi.

9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schotining kreditida sotilgan yoki jo'natilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lov hujjatlari bo'yicha ko'rsatilgan summalar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlardan olinadigan summalar (4010) va bank schotlariga yotkazilgan summalar qayd qilinadi. Ushbu summalar tegishli 9010-"Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan daromadlar" va 9030-"Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar" schotlarining debetidan olinadi.

Mahsulot jo'natilganidan yoki sotilganidan so'ng va to'lov hujjatlari ko'rsatilganidan keyin sub'ektning buxgalteriyasida quyidagi yozuvlar qayd etiladi:

Sotuv narxlarining qiymati miqdoriga:

4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar" schotining debeti;

9010-"Mahsulotlarning sotilishidan olingan daromadlar" schotining krediti;

Bir vaqtning o'zida:

9110-"Sotilgan mahsulotlarning tannarxi" schotining debeti va

2810-"Tayyor mahsulot" schotining krediti haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi miqdoriga.

Mahsulotlarni jo'natish va sotishning hisobi 11-jurnal-orderda yuritiladi. Mazkur jurnal-order "Magnit" MCHJda 2800-"Tayyor mahsulotlar", 2910-"Tovarlar", 9110-"Sotilgan mahsulotlarning tannarxi", 9120-"Sotilgan tovarlarning tannarxi", 4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan to'lovlar" schotlarining kreditiga oid muomalalar hamda 9010, 9030 va 9110 schotlarining analitik ma'lumotlarini aks ettirishga mo'ljallangandir.

"Magnit" MCHJda 11-jurnal-order va 15,16-qaydnomalar analitik ma'lumotlar asosida yuritiladi. 9110, 9130 va 9010, 9030 schotlarining analitik ma'lumotlari haqiqiy tannarx, hisob narxlari, takdim etilgan to'lovnoma yoki uning narxini ko'rsatib o'rnini bosuvchi hujjatga doir summa, shuningdek hisobot oyi muomalalari hamda yil boshidan beri amalga oshirilgan hajmi bo'yicha soliq summolari ham 11-jurnal-orderda keltiriladi.

9010, 9030 va 9110, 9130 schotlarining analitik hisobi sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning har bir turi bo'yicha ayrim olgan xolda yuritiladi.

"Magnit" MCHJda sotilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash uchun dastlab 11-jurnal-orderda yil boshidan beri jo'natilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi muomalasi uning takdim etilgan to'lovnomalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar) bo'yicha qiymatiga foiz nisbati belgilanadi. Olingan foiz bilan oy yakuni holatiga ko'ra hali to'lanmagan, lekin jo'natilgan mahsulotning haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Buning uchun oy yakuni holatiga ko'ra hali to'lanmagan barcha to'lovnomalarning sotuv qiymati ushbu foiz nisbatiga ko'paytiriladi. Sotilgan mahsulot va xaridorlarga jo'natish xarajatlarining haqiqiy tannarxga ularni hisobot oyida jo'natish qiymati (qaytarilgan mahsulot summasi bunga kirmaydi) qo'shiladi va undan oy oxiridagi qoldig'i ayirib tashlanadi.

11-jurnal-orderda shuningdek, yaroqsizligi uchun xaridorlar tomonidan qaytarilgan mahsulotlarga doir muomalalar ham aks ettiriladi. Agar mahsulot uning qiymati to'langunga qadar qaytarilsa, hisobda quyidagi yozuvlar qayd etiladi:

1. Sotuv narxi qiymati miqdoriga:

9040-"Sotilgan mahsulotlarning qaytarilishi" schotining debeti;

4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan to'lovlar" schotining krediti;

2. Mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqiy tannarxi miqdoriga:

2810-"Tayyor mahsulot" schotining debeti;

9110-"Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi" schotining krediti;

3. Foyda yoki zarar summalarining hajmi esa 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schotida aniqlanadi:

9010-"Sotilgan mahsulot (ish, xizmatlardan olingan daromadlar" schotining debeti;

9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schotining krediti;

9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schotining debeti;

9040-"Sotilgan mahsulotlarning qaytarilishi" schotining krediti;

9110-"Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi" schotining kreditidan
9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schotining debetiga o'tkaziladi.

4. Haqiqiy tannarx miqdoriga:

2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotining debeti, 2010-"Asosiy ishlab
chiqarish" schoti krediti va 9110-"Sotilgan mahsulotlarning tannarxi" schotining
debetiga 2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotining kreditidan o'tkaziladi.

Agar mahsulot haqi xaridor tomonidan to'langan bo'lsa, bu holda sanab
o'tilgan buxgalteriya yozuvlaridan tashqari kelib tushgan pul mablag'lari
summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

6310-"Xaridor va buyurtmachilardan olingan bunaklar" schotining debeti

4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan to'lovlar" schotining
kredit

qolgan summa 5010, 5110 yoki 5210 schotlarining debeti

4010 schotining kreditiga qayd qilinadi.

Xaridorlar tomonidan qaytarilgan yaroqsiz mahsulot quyidagicha
rasmiylashtiriladi:

2610-"Ishlab chiqarishdagi brak" schotining debeti va

6860-"Da'volar bo'yicha to'lanadigan to'lovlar" schotining krediti.

Mahsulotni xaridorga o'z hisobidan yetkazib berishga doir transport
xarajatlari uchun quyidagi o'tkazma amalga oshiriladi:

9410-"Mahsulotni sotish bilan bog'liq sarflar" schotining debeti va 2310-
"Yordamchi ishlab chiqarish" schotining krediti.

Brak mahsulotining xaridor tomonidan yetkazib berilishiga doir transport
xarajatlari quyidagicha aks ettiriladi:

2610-"Ishlab chiqarishdagi brak" schotining debeti;

5110-"Pul mablag'lari" schotining krediti.

Mahsulot (ish, xizmat)larning sotilishining moliyaviy natijasi 9910-"Yakuniy
moliyaviy natijalar" schotining krediti va debeti jamlamalarini taqqoslash yo'li
bilan aniqlanadi. Agar 9910-schotning kredit tomonidagi jamlamasi debet
tomonidagi jamlamasiga qaraganda yuqoriroq bo'lsa, bu holda "Magnit" MCHJ

foйда olgan hisoblanadi va oyning jamlama schotida to'raligicha hisoblab chiqariladi hamda bu holda ma'lumotlar 15-jurnal-orderda qayd qilinadi.

Agar 9910-schotning kreditdagi jamlama summasi debetidagi jamlama summasidan kam bulsa, u holda "Magnit" MCHJ zarar ko'rgan bo'ladi hamda 11-jurnal-orderda qayd qilinadi.

"Magnit" MCHJda mahsulotni sotish xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- mahsulotning jo'natilishini tashkil etish (marketing muomalalari)ga doir xarajatlar;
- tayyor mahsulotlar omboridagi mahsulotning idishi va uni o'rab-bog'lash xarajatlari;
- mahsulotni yetkazib beruvchi hisobidan u jo'natiladigan stantsiyaga yetkazib berish, vagonlar, avtomobillar va boshqa transport vositalariga yuklash xarajatlari;
- mahsulotni jo'natish va boshqa vositachilik yig'implari (ajratmalari)ni to'lash xarajatlari;
- mahsulotni sotish joyidagi ular saqlanadigan binolarning qarovi va qishloq xo'jaligi korxonalarida sotuvchilarning mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlar;
- reklama xarajatlari;
- boshqa, yuqorida qayd qilingan xarajatlardan tashqari maqsadli xarajatlar.

"Magnit" MCHJda mahsulotni o'rab-bog'lash va saqlashga oid xarajatlar xaridorlar tomonidan sarflansa sotuv xarajatlariga kiritilmaydi. Ombordagi tayyor mahsulotlarni xaridorlarga sotish "Magnit" MCHJning marketing bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun xaridorlar bilan oldindan tuzilgan shartnomalar va jo'natish grafigiga asosan korxona raxbarining buyrug'i chiqariladi yoki maxalliy iste'molchilarga yuk xatiga asosan sotiladi.

“Magnit” MCHJda mahsulot ombordan xaridorning vakiliga berilgan ishonchnomasi asosida jo’natiladi va tovar transport yuk xati hujjati bilan rasmiylashtiriladi. Mahsulot jo’natilgandan so’ng sotilgan mahsulot qiymati

2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotining kreditidan

9110-"Sotilgan mahsulotlarning tannarxi" schotining debetiga yoziladi va shu vaqtda

4010-"xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar"ning debeti va 9010-"Sotilgan mahsulotlardan olingan daromadlar" schotining kreditida qayd qilinadi.

Mahsulotni sotish bilan bog’liq xarajatlarga doir axborotlar 9400-"Davrxarajatlari" schotlarining 9410-"Sotish bilan bog’liq sarflar" schotlarida to’planadi. Mahsulotni jo’natish va sotishga doir barcha xarajatlar ko’rsatib o’tilgan nomenklaturaga muvofiq ravishda 9400-"Davrxarajatlari" schotlari guruhiga kiruvchi 9410 schotlarining debetida ko’rsatiladi.

Har bir hisobot davrining oxirida 9410-"Sotish bilan bog’liq sarflar" schotidagi summa 9910-"YAkuniy moliyaviy natijalar" schotining debet tomoniga o’tkaziladi.

Mahsulotni sotish xarajatlarining hisobini yuritish uchun “Magnit” MCHJning buxgalteriyasida quyidagi yozuvlar qayd qilib boriladi:

Tayyor mahsulot omboridagi idish va o’rab-bog’lash materiallari qiymatiga:

9413-"Idish sarflari" schotining debetiga;

1060-"Idish va idish materiallari" schotining kreditidan.

Yordamchi ishlab chiqarish va mahsulotni o’rab-bog’lash hamda jo’natish bo’linmalariga xizmat ko’rsatish sexlari tomonidan ko’rsatilgan xizmatlarning haqiqiy tannarxi miqdoriga:

9410-"Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan bog’liq sarflar" (9411 va 9413) schotining debetiga;

2300-"Yordamchi ishlab chiqarish" schotlarining kreditidan.

Tijorat xizmatlari (reklama, sotishga yordam berish va boshqa)ning haqiqiy qiymati miqdoriga:

9412-"Reklama va sotishga yordam berish sarflari" schotining debetiga va

6010-"Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzlarni"
schotining kreditiga;

Xodimlarga yuklash va tushirish ishlari uchun ish haqi hisoblanganda:

9411-"Sotish va tashish sarflari" schotining debetiga va

6710-"Mehnatga haq to'lash yuzasidan xodimlarga bo'lgan qarzlarni"
schotining kreditiga;

Ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga ajratmalar o'tkazishga:

9415-"Mehnat haqi jamg'armasidan ajratmalar" schotining debeti va

6510-"Sug'urta bo'yicha to'lovlar" schotining kreditiga;

Hisobdor shaxslar tomonidan to'langan tayyor mahsulotlarni jo'natish
xarajatlarining summasi miqdoriga:

9419-"Boshqa savdo sarflari" schotining debetiga

6970-"Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlarni" schotining kreditidan.

"Magnit" MCHJda 9410-"Mahsulot (ish, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq
xarajatlar"ning analitik hisobi belgilangan nomenklaturaga muvofiq 15-
qaydnomada yuritiladi. Oy yakunida 9410 schotining debet tomonida hisobga
olingan summalar 9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schotiga hisobdan
chiqariladi.

9910-"Yakuniy moliyaviy natijalar" schotining debetiga

9410-"Mahsulotlarni sotish sarflari" schotilarining kreditidan.

Ushbu o'tkazmalar 11-jurnal-orderda aks ettiriladi.

"Magnit" MCHJda 9400-Davr sarflarini hisobga oluvchi schotlarning
nomalinishi:

9410-"Sotish bilan bog'liq sarflar" schotlari;

9411-"Saqlash va tashish sarflari" schotlari;

9412-"Reklama va sotishga yordam berish sarflari" schotlari;

9413-"Urash (kadoklash), navlarga ajratish va idish sarflari" schotlari;

9414-"Mehnatga haq to'lash sarflari" schotlari;

9415-"Mehnat haqi jamgarmasidan ajratmalar" schotlari;

9419-"Boshqa savdo sarflari" schotlari.

Ko'rib o'tganimizdek, "Magnit" MCHJda tayyor mahsulotlarni sotish jarayoni ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mahsulotlar puxta tuzilgan marketing dasturi bo'yicha ishlab chiqariladi va sotiladi. Buxgalteriyada esa hisob to'g'ri olib boriladi.

3.BOB. Tayyor mahsulot va uni baholash hisobi hamda qabul qilish muomalalari hisobini takomillashtirish.

3.1. Tayyor mahsulotlar va ularni saqlanishini inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi.

Buxgalteriya hisobida uning ma'lumotlarini to'g'riligini, korxona aktivlarini haqiqiy holatini, moddiy javobgar shaxslarning o'z funksiyalarini sidqidildan vijdonan bajarayotgaligini, mulkni talon-taroj qilinmaganligini bilish maqsadida «inventarizatsiya» nomini olgan usul ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisob obyektlarini inventarizatsiya qilish tartibi maxsus 19- son BHMS «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish» bilan reglamentlashtirilgan. Ushbu standartga muvofiq inventarizatsiyaning quyidagi turlari mavjud:

- Rejali inventarizatsiya – bu korxonaning moddiy javobgar shaxslarni navbatdagi mehnat ta'tiliga chiqarish rejasiga ko'ra o'tkaziladigan inventarizatsiya.
- Rejadan tashqari inventarizatsiya – bu ko'zda tutilmagan hollarda, masalan favqulotdagi hodisalar yuz berganda (o'g'rilik, toshqin va shu kabi hodisalar sodir bo'lganda) o'tkaziladigan inventarizatsiya¹¹.

Inventarizatsiyaning harakterli xususiyatlari:

- Inventarizatsiya to'satdan o'tkaziladi, ya'ni moddiy javobgar shaxs uni o'tqazilishi to'g'risida oldindan xabar topmasligi lozim.
- Inventarizatsiya rahbarning buyrug'i yoki farmoyishi bilan tasdiqlangan doimiy harakatdagi va ishchi inventarizatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladi, ushbu komissiyaga moddiy javobgar shaxs albatta kiritiladi.
- Inventarizatsiya ma'lum muddatga o'tkaziladi, uning boshlanish va tugash vaqti buyruqda yoki farmoyishda ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
- Inventarizatsiyani o'tqazish belgilangan tartibda va usullarda amalga oshiriladi.
- Inventarizatsiya natijalari maxsus sanoq va taqqoslash dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

¹¹ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari to'plami O'zBAMA, Toshkent – 2012 yil.

O‘zbekiston Respublikasining BHMS lariga muvofiq korxona aktivlarini rejali inventarizatsiya qilishda quyidagi muddatlar belgilangan:

5-jadval.

Moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilish muddatlari.

Inventarizatsiya obyekti	Inventarizatsiyani o‘tqazish muddatlari	Qaysi BHMSga muvofiq
Asosiy vositalar	Ikki yilda bir marta yillik hisobot oldidan	5- son BHMS, 19-son BHMS
Kutubxona fondi	Besh yilda bir marta	5- son BHMS, 19-son BHMS
Tovar-moddiy boyliklar (yoqilg‘i, oziq –ovqatlar, qimmatbaho metallardan tashqari)	Yiliga kamida bir marta	4-son BHMS, 19-son BHMS
Yoqilg‘i, oziq –ovqatlar	Har chorakda	4 –son BHMS 19-son BHMS
Qimmatbaho metallar	Tarmoq yo‘riqnomasiga muvofiq belgilangan muddatlarda	Maxsus yo‘riqnoma
Pul mablag‘lari, Pulli ekvivalentlar va hujjatlar	Har oyda bir marta	12- son BHMS 19—son BHMS
Hisob-kitoblar	Bir marta yillik hisobot oldidan	19-son BHMS

Inventarizatsiyaning natijasida hisob ma’lumotlaridan chetlanishlar aniqlanishi mumkin. Bunday chetlanishlar bo‘lib kamomad va ortiqchalar hisoblanadi. Aniqlangan kamomadlar ning belgilangan me’yorlardan tashqarisi

moddiy javobgar shaxslardan qonun doirasida o'ndirilib olinadi. Aniqlangan ortiqchalar korxonaning daromadiga olinadi.

“Magnit” MCHJda tayyor mahsulotni inventarizatsiyadan (yo'qlamadan) o'tkazish tartibi aylanma mablag'larning tarkibiga kiruvchi boshqa moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilish tartibi bilan bir xil. Ba'zi farqlari shundan iboratki, tayyor mahsulotlar qator holatlarda nafaqat o'zining omborlarida, balki sexlarning omborlarida va mahsulotlarni sotib beruvchi sub'ektlarning omborlarida javobgarlik asosida saqlanadi. Buxgalteriya hisobida va inventarizatsiya ro'yxatlarida ular yaxlit holda aks ettiriladi. Tayyor mahsulotlarning xarakati jadal ravishda ro'y beradi, shuning uchun tayyor mahsulotlarning inventarizatsiyasini imkoni boricha qisqa muddatlarda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Magnit” MCHJda inventarizatsiya jarayonida tayyor mahsulotlarni qayta hisoblash, o'lchash va tortib ko'rish yo'li bilangina emas, balki ularning butligi, navi va boshqa sifat tavsiyalari ham tekshiriladi.

Inventarizatsiya ro'yxatlarida moddiy boyliklarning kodi, nomi, miqdoridan tashqari ularning nomenklatura raqami, markasi (rusumi) va navi hamda boshqa alohida belgilari ham ko'rsatiladi.

Turib qolgan va qimmatli to'liq bo'lmagan mahsulotlar uchun alohida ro'yxat tuziladi. Yaroqsiz holga kelgan mahsulotlar ro'yxatga kiritilmaydi. Ular yuzasidan maxsus dalolatnoma tuziladi. Bu dalolatnomada tayyor mahsulot buzilishining sababi va aybdor shaxslar, qadrsizlanish summasi ko'rsatiladi.

“Magnit” MCHJda inventarizatsiya o'tkazish vaqtida mahsulotlar inventarizatsiya komissiyasi ishtirokida qabul qilinadi va alohida ro'yxatga kiritiladi. Jo'natilgan deb hisoblangan yoki haqi to'langan, lekin ombordan olib chiqib ketilmagan mahsulotlar ham alohida qayd etiladi. Joylash va saqlash idishi ham turi, maqsadi va toifasiga qarab (yangi, foydalanishda bo'lgan tayyor mahsulot bilan birga inventarizatsiyadan o'tkaziladi.

Jo'natilgan mahsulotlar va tovarlar va xaridorlar tomonidan muddatida haqi to'lanmagan mahsulotlar va tovarlar yuzasidan har bir yuklab jo'natish bo'yicha alohida yo'qlama ro'yxati tuziladi. Ularda mahsulot, tovarlar va xaridorning nomi,

jo'natish sanasi, to'lov topshiriqnomasi yozib berilgan sana, uning raqami va berilgan schot-faktura bo'yicha summasi ko'rsatiladi.

"Magnit" MCHJning boshqa korxonalar (konsignator)ning omborlarida saqlanayotgan tayyor mahsulotlar ushbu moddiy boyliklarning mas'uliyatli saqlashga topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida ro'yxatga kiritiladi. Mas'uliyatli saqlashga qoldirilgan mahsulot uchun saqlash tilxatlarini inventarizatsiya boshlangan sanaga yaqin sanaga qayta rasmiylashtiriladi.

Inventarizatsiya natijalari yuzasidan taqqoslash qaydnomalari faqat hisobga olish ma'lumotlaridan chekinishga yo'l qo'yilgan mahsulotlarning turlari bo'yicha tuziladi.

Inventarizatsiya natijalarida aniqlangan tayyor mahsulotlarning qoldiqlari joriy hisobda qabul qilingan narxlar bo'yicha baholanadi.

Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mavjud tayyor mahsulotlarning qoldig'i va hisobga olish ma'lumotlari o'rtasidagi farq moddiy boyliklar uchun qabul qilingan umumiy tartibda bartaraf etiladi.

Agarda "Magnit" MCHJda inventarizatsiya natijasida tayyor mahsulotlar ortiqcha chiqsa ular omborga qabul qilinadi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi rasmiylashtiriladi:

Debet 2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" schoti

Kredit 9390-"Boshqa muomalaviy daromadlar" schoti.

Mabodo inventarizatsiya natijasida tayyor mahsulotlarning me'yor darajasidagi kamomadi aniqlansa dalolatnomaga muvofiq

9439-"Boshqa muomalaviy sarflar" schotining debetida va

2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotining kreditida, agarda javobgar shaxs zimmasiga yuklatilsa

4630-"Moddiy zararlarni qoplash yuzasidan xodimlarning qarzi" schotining debetiga

2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar" schotining kreditidan o'tkaziladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, korxonada tayyor mahsulotlarni inventarizatsiya qilish har oyda amalga oshiriladi. Bu jarayon uzoq davom etadi va

shunga muvofiq uning natijasida korxona tayyor mahsulotlarining haqiqiy miqdori aniqlanadi.

3.2. Tayyor mahsulotlar va uni qabul qilish hisobini takomillashtirish.

Tayyor mahsulotlarni hisobga olish uchun 21-son BHMS da quyidagi schotlar tizimi ko‘zda tutilgan:

- 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- 2820 “Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar”
- 2830 “Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar”

Ushbu schotlar aktiv schotlardir, ularning debetida tayyor mahsulotlarning qoldig‘i, kelib tushish natijasida ko‘payishi, kreditida esa – kamayishi aks ettiriladi.

Korxona omboriga kirim qilingan barcha tayyor mahsulotlar 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schotining debetida va boshqa tayyor mahsulotlarni qaysi manbalardan kelib tushganligini ko‘rsatuvchi schotlarning kreditida aks ettiriladi, jumladan:

- Kredit 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” – asosiy ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarning tannarx bo‘yicha qiymatiga;
- Kredit 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish” – yordamchi ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarning tannarx bo‘yicha qiymatiga;
- Kredit 4610 “Ustav kapitaliga badallar bo‘yicha ta’sischilarning qarzi” – ta’sischilardan ta’sis badali sifatida olingan tayyor mahsulotlarning qiymatiga;
- Kredit 9380 “Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam” – boshqa shaxslardan qaytarilmaydigan moliyaviy yordam sifatida olingan tayyor mahsulotlarning qiymatiga;
- Kredit 1010 “Materiallar “ - tayyor mahsulot tarkibiga kiritilgan materiallar qiymatiga;
- Kredit 2810,2820,2830 – tayyor mahsulotlarning ichki almashuviga
- Kredit 9390 “ Boshqa operatsion daromadlar” – inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar summasiga va boshqalar.

Tayyor mahsulotlarning sotilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Haridorlarga taqdim etilgan schot-fakturalar bo'yicha tayyor mahsulotning QQS siz bo'lgan sotish bahosidagi qiymatiga

Debet 4010 "Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar"

Kredit 9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar"

2. Sotilgan tayyor mahsulotlarga to'g'ri keladigan QQS summasiga

Debet 4010 "Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar"

Kredit 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar"

3. Haridorlar bilan sotilgan tayyor mahsulotlar bo'yicha hisob-kitob qilinganda:

- Olingan avans summasiga

Debet 5010 "Kassa", 5110 "Hisob-kitob schoti", 5210 "Valyuta schoti"

Kredit 6310 "Haridor va buyurtmachilardan olingan avanslar"

- Olingan avans summasini mahsulot sotilgan so'ng yopilishiga

Debet 6310 "Haridor va buyurtmachilardan olingan avanslar"

Kredit 4010 "Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar"

- Oxirgi debitorlik qarzni olinishiga

Debet 5010 "Kassa", 5110 "Hisob-kitob schoti", 5210 "Valyuta schoti"

Kredit 4010 "Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar"

Sotilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarini har bir schot-faktura bo'yicha aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun sotilgan mahsulotlarning tannarxini topish maqsadida hisobot davri oxirida tayyor mahsulotlar holati va harakati bo'yicha balans tuziladi. Bu balans tovar balansi deb nomlanib, hozirgi kunda juda ko'p korxonalarda tuzilmayapti. Shuning uchun amaliyotni o'rganish natijasida "Magnit" MCHJda ham ushbu balansni tuzishni tavsiya qilamiz.

"Magnit" MCHJda 2014 yil uchun tovar balansini tuzib ko'rishga xarakat qildik. Ma'lumotlarni korxona buxgalteriyasidan olindi.

6-jadval.**“Magnit” MCHJda tayyor mahsulot bo'yicha balans.**

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Tannarxi bo'yicha	Sotish bahosi bo'yicha	Farqi (+,-)
1. Davr boshiga qoldiq	2000000	2580000	258000
2. Ishlab chiqarishdan olingan mahsulot	10000000	13400000	3400000
3. Qayta baholash summasi		500000	500000
4.Jami sotishga tayyor mahsulot (1 + 2 + 3)	12000000	14158000	2158000
5. 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan harajat	X	0,8475	
6. Sotilgan tayyor mahsulot	9322500	11000000	1677500
7.Davr oxiridagi qoldiq	2677500	3158000	480500

Sotilgan mahsulotlarning tannarxini topish uchun balansda ularning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi va sotish baholarida alohida ustunchalarda ko'rsatiladi. Jami sotishga tayyor mahsulotlarga ketgan barcha harajatlarni sotishga tayyor jami mahsulotlarni sotish bahosiga (QQS siz) bo'lish yo'li bilan 1 so'mlik sotishga tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan o'rtacha tannarx aniqlanadi. Topilgan o'rtacha tannarx sotilgan tayyor mahsulotlarning sotish bahosidagi (QQS siz) qiymatiga ko'paytiriladi, chiqqan summa jami sotilgan tayyor mahsulotning tannarxini bildiradi. Yuqorida keltirilgan jvdalda 1 so'mlik sotishga tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan o'rtacha tannarxi 0, 85 so'mni tashkil qilgan. Jami sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi – 9322500 ming so'm ($11000000 \times 0,85$). Ushbu summaga hisobot davri oxirida quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 9110 “Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi”

Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”

Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan foydani topish uchun 9010- schotda aks ettirilgan daromad 9910 “Oxirgi moliyaviy natija” schotining kreditiga, 9110- schotda aks ettirilgan sotishning tannarxi 9910 “Oxirgi moliyaviy natija” schotining debetiga o‘tkaziladi, oxirgi schotning kredit va debet oborotlari o‘rtasidagi ijobiy farq (boshqa yozuvlarsiz) sotishdan olingan foydani ifodalaydi. Yuqoridagi jadvalda sotishdan olingan foyda summasi 1677500 ming so‘mni tashkil etgan.

Tayyor mahsulotlar sotilgan deb hisoblanadi, agarda ular haridorlardan tashqari o‘z xodimlariga mehnat haqi evaziga berilgan bo‘lsa, ta’sis badali sifatida boshqa korxonaga investitsiya qilingan bo‘lsa, xo‘jalik zaruriyatlariga ishlatilgan bo‘lsa ham. Bunday hollarda yuqorida keltirilgan yozuvlarda 4010 –schotning o‘rniga 0600 “Moliyaviy investitsiyalar“, “1000 “Materiallar”

6700 “Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar”, 9430 “Boshqa operatsion harajatlar” kabi schotlar debetlanadi.

2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar” schotining kreditida tayyor mahsulotlar zahiralarining boshqa chiqimlari ham aks ettiriladi, jumladan:

- Ular asosiy va yordamchi ishlab chiqarishga qayta sarflanganda
Debet 2010 “Asosiy ishlab chiqarish”, 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- Ular korxonaning magaziniga berilganda
Debet 2920 “Chakana savdodagi tovarlar”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- Brak mahsulot deb tan olinganda
Debet 2600 “Ishlab chiqarishdagi braklar”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- Kamomadlar aniqlanganda
Debet 5910 “Boyliklarni buzilishidan ko‘rilgan kamomad va yo‘qotishlar”
Kredit 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”
- Ko‘rgazma zallariga berilganda
Debet 2820 «Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar»

Kredit2810«Ombordagi tayyor mahsulotlar»

- Komissiyaga berilganda

Debet 2830 «Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar»

Kredit2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar»

Tayyor mahsulotlarning analitik hisobi moddiy javobgar shaxslar bo'yicha, mahsulotlarning turlari bo'yicha olib boriladi.

“Magnit” MCHJda 2014 yilda ish haqiga berilgan 2580000 so'mlik mahsulot sotilgan mahsulot sifatida sotish hajmiga qo'shilmagan. Bu summa joriy yilda aniqlandi va tuzatish yozuvlari orqali sotish hajmiga qo'shib qo'yildi.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimiz yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, halqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsuli bo'lib tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar bu texnologik ishlov berishning barcha bosqichlaridan o'tgan, tasdiqlangan standartlar va texnik shartlarga muvofiq keladigan (uning sifatini tasdiqlaydigan sertifikat yoki boshqa hujjat bilan ta'minlangan), texnik nazorat bo'limi qabul qilgan va omborga topshirilgan yoki xaridorga yuklab jo'natilgan mahsulotlardir.

Ma'lumki, xar bir faoliyat yuritayotgan korxona o'z mahsulotini asosan sotish uchun ishlab chiqaradi. O'z vaqtida sotilgan mahsulot esa korxonanining ijobiy moliyaviy natijalarga erishishi, dividend to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi, mulk va mablag'larning uzluksiz hamda samarali aylanishi kabi ko'pgina moliyaviy ahvol munosabatlarini yaxshilash imkoniyatini tug'diradi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq muomalalarni amalga oshirish uchun albatta dastlabki ma'lumotlar zarurdir, ularni esa buxgalteriya hisobi yordamida olish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida tayyor mahsulotlarni baholash va ularni qabul qilish hisobi mavzusi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mahsulot hisobi reja bo'limida natura ko'rsatkichlarida, omborda esa qiymat ko'rsatkichlarida olib boriladi.

Tayyor mahsulot buxgalteriya hisobida mahsulotning amaldagi ishlab chiqarish tannarxi, reja ishlab chiqarish tannarxi, sotishdagi ulgurji narhlar, erkin sotish narhlari va tariflari, erkin bozor narhlarida baholanishi mumkin. SHuni ham aytib o'tish kerakki, tayyor mahsulot korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga kiradi va shu boisdan amaldagi buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi milliy

standartlarga (BHMS) binoan, haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha balansda aks ettirilishi kerak.

Buxgalteriya hisobining vazifalaridan biri daromad keltirmaydigan xarajatlar, yaroqsiz mahsulotlar, bekor turib qolishlar, kamomad va moddiy boyliklarning buzilishidan ko'riladigan yo'qotishlarni o'z vaqtida topish va aniqlashdan iboratdir. Bunday ma'lumotlar korxona mablag'larining samarasiz sarflanishi sabablari va aybdorlarini bilib olishga imkon beradi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasi ishlab chiqarish hajmi, nomenklaturasi, ishlab chiqarish va sotish muddatlari ko'rsatilgan yoyilma tizimli dasturidan iborat bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish dasturini bajarilishi korxonadagi barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etadi. O'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish dasturini bajarilmasligiga ham turli omillar ta'sir etadi. Bu omillar ta'sirini o'rganish esa korxona uchun qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlashga va ulardan ishlab chiqarishni samaradorligini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi – korxona faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning asosida ish kuchiga bo'lgan talab va ishlab chiqarish quvvatlari, ish haqi fondi, aylanma mablag'lar va hokazolar aniqlanadi. Korxona bo'yicha barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qiymat o'lchovida umumlashadi.

Oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulotlarni to'liq turlarda ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Agar korxona shartnoma asosida rejalashtirilgan mahsulotlarni to'liq turlarda ishlab chiqarmasa, u holda aholining ayrim tovarlarga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilmaydi. Chunki korxonalar iloji boricha kam xarajat, kam mehnat talab qiladigan va bahosi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishga harakat qiladi, shuning uchun ham tahlil jarayonida mahsulot turlarini bozor talabiga asosan ishlab chiqarishni tashkil etishga bajarilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib “Magnit” MCHJ korxonasida tayyor mahsulotlarni baholash, uni qabul qilish hisobini yanada tartibga solish uchun quyidagi takliflarimizni tavsiya etamiz:

1. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish xajmi hisobot davrida anchagina oshgan, lekin shu bilan birga ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi ham oshgan. Buning sababi korxonada foydalanilayotgan xom ashyo va materiallarni bir qismi chet eldan ya’ni, Xitoydan keltiriladi bu esa mahsulot tannarxini o’zgarishiga o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatadi. Shuning uchun ushbu xom ashyolarni iloji boricha maxalliyashtirishni tavsiya etamiz.
2. Sotilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarini har bir schot-faktura bo’yicha aniqlab bo’lmaydi. Shuning uchun sotilgan mahsulotlarning tannarxini topish maqsadida hisobot davri oxirida tayyor mahsulotlar holati va harakati bo’yicha balans tuziladi. Bu balans tovar balansi deb nomlanib, hozirgi kunda juda ko’p korxonalarda tuzilmayapti. Shuning uchun amaliyotni o’rganish natijasida “Magnit” MCHJda ham ushbu balansni tuzishni tavsiya qilamiz.
3. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o’z vaqtida sotish hisobiga debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqarilgan (ayniqsa mavsumiy)mahsulotlarni sotishda chegirmalar berish, qo’shimcha hizmatlarni (etkazib berish, saqlab qo’yish va shu kabilar) joriy etish maqsadga muvofiq bo’lar edi deb o’ylaymiz.
4. Mahsulot sotish hajmini oshirish uchun korxonada marketing izlanishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu ishni korxonada direktor o’rinbosari raxbarligida hisobchilar va sotish bo’limi boshliqlar ibajarishlari mumkin.

O’ylaymizki, keltirilgan takliflar amaliyotga tadbqiq etilsa tayyor mahsulotlarni baholash va uni qabul qilish hisobi hamda umuman korxona faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2009 yil. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. -Toshkent, O'zbekiston. 2012 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 1996 yil 30 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni. –T.: 1999 yil 14 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. T., 2000 y.
6. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.T., 2008 y.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonda Fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2012 yil 22 oktyabr, PF-4478-son

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011 yil PQ-1675-sonli Qaroriga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Mahsulot (ishlar, hizmatlar)ni ishlab chiqarish va

sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. T., 2012 y.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 290-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida" 288-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zkeysagrolizing" "o'zbek-amerika kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi 111 qarori –T.: 1997 y.
14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida" nizom. O'Z AV tomonidan 1192-son bilan ro'yxatga olingan –T.: 2002 y.
15. O'zbekiston Respublikasining Buxgaltyeriya hisobining milliy standartlari, To'plam. T.: O'zR BAMA nashriyot markazi. 2002. 220 b.
16. "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliya - xo'jalik faoliyati buxgaltyeriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha ko'rsatma", O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Buxgaltyerlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasi, -T., 2003 y.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

17. I.Karimov. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: "O'zbekiston". 2009y. -56 b.
18. I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston" 2010 yil
19. I.A.Karimov "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi 2015 yil 17 yanvar.

V. Darsliklar

20. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. /Darslik -T.: SHarq, 2004.-592 b.
21. Sotivoldiyev A. S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y 234 b.
22. Jo‘raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: 2007 y 344 b.
23. Jo‘raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y. 250 b.
24. R.O.Xolbekov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: TDIU, 2010. – 212 b.
25. M.M.To‘laxo‘jaeva va boshqalar. Audit. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.
26. N.Yu.Jo‘raev, F.T.Abduvaxidov, D.A.Sotvoldiyeva. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: TDIU, 2010. – 287 b.
27. O.Bobojonov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 536 b.
28. T.Qudratov, N.Fayziyeva. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik. – T.: Voris-nashriyot, 2012. – 256 b.
29. A.V.Vahobov, N.F.Ishonqulov, A.T.Ibrohimov. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. - T.: Iqtisod-Moliya, 2013. – 600 b.
30. G‘ozibekov D.G‘, Sobirov O.SH., Mo‘minov A.G., Quljonov O.M, Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent.: «Fan va texnologiya», 2004.

VI. O‘quv qo‘llanmalar

31. Bekmuradov A. va boshqalar. Moliya va bank tizimidagi islohatlar samarasi. –T.: TDIU. 2005. 62 b.
32. O‘razov K.B. Iqtisodiyotni yerkilashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari/ K.B. Urazov. - T.: Fan nashriyoti, 2005. - 236 b.

33. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmuradov, U.V.G'afurov. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 b.
34. O.Bobojonov, K.Jumaniyozov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 463 b.

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari

35. "Soliq solish va buxgalteriya hisobi" jurnali. –T.: 2012-2014 yillar.
36. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnal. –T.: 2012-2014 yillar.
37. "Bozor, pul va kredit" jurnal. –T.: 2012-2014 yillar.
38. "Soliq va bojxona habarlari" gazeta. –T.: 2012-2015 yillar.
39. "Magnit" ma'suliyati cheklangan jamiyatining 2012-2014 yillardagi moliyaviy va statistik hisobotlari

VIII. Internet saytlari

40. <http://www.imce.ru>
41. "Norma" 2012-2013
42. www.uz.report.com.
43. www.ceep.uz.
44. www.consultant.ru
45. www.comyersant.ru
46. <http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti)